

**O‘ZBEKISTON RESPUBLİKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

AMINOVA NODIRA BAXTIYOROVNAning
**«UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA FURQAT IJODINI
O‘RGATISHNING SAMARALI USULLARI »**
mavzusidagi

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2015

Malakaviy bitiruv ishi O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishining 2015-yil 27 maydagi 10-bayyonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi:

Fakulteti dekani:	f.f.n.dots. G. Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.n. S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n. O. Dyusenbayev katta o'qituvchi Sh. Aldasheva
Bitiruvchi:	N. Aminova

Aminova Nodira Baxtiyorovnaning «Umumta'lim maktablarida Furqat ijodini o'rgatishning samarali usullari» mavzusidagi malakaviy – bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («_____»%) qo'yildi.

«___»_____ 2015yil

DAK kotibi:	I.Madiyarov
-------------	-------------

MUNDARIJA

KIRISH.....	7
BIRINCHI BOB. Furqat hayoti va ijodi.....	8
IKKINCHI BOB. Umumta’lim maktablarida Furqat ijodini o‘rgatishning samarali usullari haqida.....	31
XULOSA.....	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	54

KIRISH

Tadqiqot mavzuning dolzarbligi: Yurtboshimiz I.Karimov o'zining "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" asarida yozuvchilarimiz ijodi va ularning asarlari haqida quyidagi fikrlarini bildirgan edilar. "...xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azal-azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi..."¹.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim islohotlari – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Davlat tili haqida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni hayotga tadbiq qilinishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Shaxsning rivojlanishi-jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldidagi eng asosiy vazifalardan biri sog'lom avlodni voyaga yetkazish. Bu muhim vazifani amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq.

Mustaqillikka erishilgandan keyin barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimida ham jiddiy islohatlar amalga oshirildi, ta'limning sifatini yaxshilashga kirishildi.

Ta'lim berishning yangi usullari joriy qilina boshlandi. Shulardan eng asosiysi o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiya asosida dars berish masalasi. Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarning qiziqishi, iqtidori, bilim darajasini inobatga olgan holda yakka tartibda va tabaqalashtirib o'qitishni ta'minlash, adabiyot ta'limi maqsad-vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo'libgina qolmay, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga birinchi navbatda bilim berishi, ya'ni ko'p asrli o'zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo'nalishi – yetakchi yozuvchilar va ular ijodi bilan, shu yozuvchilar ijodida o'z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan sifatidagi o'ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi kerak.

¹. I. Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent -2009.

Hozirgi kunda ta'limda rivojlanish va yuksalish davri ekan, umumta'lim maktablarida adabiyot darslarida adabiyot namoyandalari ijodini samarali o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar va usullar bilan o'tish dolzarb vazifalardan biridir. Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi shundaki, darsda foydalaniladigan usullarning ushbu darsga mosligi, o'quvchilarning qabul qilish darajalari va dars samaradorligida ahamiyatli ekanligi bilan belgilanadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishimizning bosh maqsadi, umumta'lim maktablarida Furqat ijodini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar va usullar yordamida darslar tashkil qilish orqali o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish hissini shakllantirish va ularda o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodiga qiziqish paydo qilish asosida Mustaqil O'zbekistonimizning rivojiga munosib ulushini qo'shadigan yoshlarni tarbiyalash. Bitiruv malakaviy ishimizning vazifasi adid ijodini o'qitishning zamonaviy usullarini hayotga tadbqiq etish. Ilmiy ishimizdagi o'qitishning ko'rsatilgan usullaridan umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus bilim yurtlarida va oiliy o'quv yurtlarida foydalanish mumkun.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bitiruv malakaviy ishimizga tanlangan mavzuimiz "Umumta'lim maktablarida Furqat ijodini o'rgatishning samarali usullari",- deb nomlanib, Furqat ijodi bo'yicha nashr qilingan ilmiy ishlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va kitoblardagi mutaxassis va olimlar bildirgan fikrlarga tayangan holda o'qitishning kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, savol-topshiriq, tahlil usuli, aqliy hujum, tarmoqlash metodi, interfaolmetod, muammolilik, muxbirlar usuli, blits test so'rovi asosida Furqat ijodini o'rgatish, lug'at ustida ishlash kabi usullar haqidagi mulohazalarimizni yozdik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Furqatning lirik merosi o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal namunalaridandir. U ehtiros to'la g'azallari, erkka tashna musaddaslari, hijron iztiroblari barq urib turgan she'riy satrlari bilan o'zbek adabiyotiga toza va tiniq ohanglar olib kiradi. Biroq uning hayoti g'oyat murakkab kechdi. Zamon uning taqdirini alg'ov- dalg'ov qilib yubordi, peshonasiga g'ariblikni bitdi. U bir umr Vataniga qaytish armoni bilan yashadi. Lekin bu uning asarlarigagina

nasib etdi. U ko'ngli tubidagi pinhon dardlarini she'rga to'kdi. Bu she'rlar vatan sog'inchini betakror ifodalagan eng sara she'rlardan bo'lib qoldi.

Furqat o'z xalqining sodiq farzandi sifatida butun kuch va qobiliyatini, ijodiy talantini xalq ishi uchun sarf etdi, xalqning ozodlik yo'lida olib borayotgan kurashida o'z asarlari bilan ishtirok etdi.. Furqat ijodi o'sha davr hayotini o'rganishda ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, hozirgi kunimiz uchun ham muhim tarbiyaviy, amaliy ahamiyatga ham molikdir. Shuning uchun ham biz Furqat ijodini zo'r muhabbat bilan o'rganamiz. Uning asarlaridagi ilg'or g'oyalarni o'quvchilarga tushuntirish ishlarini olib borishimiz va mamakatimiz yoshlarini o'z xalqiga fidoyi insonlar qilib tarbiyalashga munosib ulushimizni qo'shishimiz lozim.

Shuning uchun umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Furqat ijodini o'qitishning samarali usullari orqali barcha insonlarni ezgu ishlarni bajarishga qodir qilib tarbiyalashga muvaffaq bo'lish mumkin. Buning natijasida jamiyatdagi insonlar orasida mehr-shavqat, oqibat, samimiylilik kabi ajoyib fazilatlar shakllanadi.

Biz mazkur bitiruv ishimizda umumta'lim maktablarida Furqat ijodini o'qitishning zamonaviy usullari haqidagi fikrlarimizni ifodalashga harakat qildik. Ushbu tadqiqotimni tanlash va yozish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida Furqat ijodi bo'yicha 9-sinfida jami 3 soat ajratilgan. Biz ushbu ish yuzasidan darsni tashkil etish uchun bir qancha usullardan foydalanishga harakat qildik. Ilmiy ishimizdagi adib ijodini o'rgatish usullaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalana olish ishning yangilik darajasini belgilaydi. Ishimizning yana bir yangilik darajasi shundaki, ilmiy rahbarlarimiz bergan maslahatlar, o'zimizning pedagogik amaliyot va umumta'lim maktablarida va oily o'quv yurtida o'qigan, to'plagan bilim va tajribalarimiz asosida yozildi desak ham bo'ladi.

Tadqiqotning predmeti va obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida umumta'lim maktablari uchun nashr qilingan adabiyot darsliklari, DTS, texnik vositalar, adib ijodi haqidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar va o'qitishning

zamonaviy usullari haqida nashr etilgan kitoblardagi bildirilgan mulohazalarga tayanib mulohazalar yurutdik.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Ushbu tadqiqotimizni tanlash va yozish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida Furqat ijodi bo'yicha 9-sinfida jami 3 soat ajratilgan. Biz ushbu ish yuzasidan darsni tashkil etish uchun bir qancha usullardan foydalanishga harakat qildik. Ilmiy ishimizdagi adib ijodini o'rgatish usullaridan to'g'ri va o'z o'rnida foydalana olish ishning yangilik darajasini belgilaydi. Ishimizning yana bir yangilik darajasi shundaki, ilmiy rahbarlarimiz bergan maslahatlar, o'zimizning pedagogik amaliyot va umumta'lim maktablarida va oily o'quv yurtida o'qigan, to'plagan bilim va tajribalarimiz asosida yozildi desak ham bo'ladi.

¹. X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma'naviyat. 2009. B.87.

I BOB

FURQAT HAYOTI VA IJODI HAQIDA

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat

(1859-1909)

O'zbek mumtoz adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirish bilan birga, o'zbek adabiyoti rivojini yangi bosqichga ko'targan mashhur shoir va publitsit Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat 1858-yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad o'qimishli odam bo'lib, she'riyat bilan ham bir qadar shug'ullangan. Bo'lajak shoir dastlabki ta'limni mahallasidagi maktabdor Muhammad Olimdan oladi. O'ta iste'dodli Zokirjon olti oyda "Haftiyak" ni tamom qiladi, "Chor kitob" ga o'tib, "andak fursat" da ham tugallaydi. Tengdoshlari hali harflarni tanish bilan ovora bo'lgan bir paytda u yozishni mashq qila boshlaydi. Bo'lajak shoir sakkiz yoshida Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, sal o'tib, Navoiy asarlarini o'qishga tutinadi.

Iste'dodli bolaning badiiy so'zga mahliyoligi shu darajada ediki, Navoiy boshliq ulug' shoirlarni tushida ko'rib, ularga "Chor devon" dan imtihon topshirib, "she'r mashqig'a ruxsat" oladi va shundan so'ng she'rlar yoza boshlaydi. U 1891-yilda "Turkiston viloyatining gazetasi" da e'lon qilgan "Xo'qndlik shoir Zokirjon Furqat ahvoloti. O'zi yozg'oni" deb atalgan va adabiyotshunoslikda shartli ravishda "Furqtanoma" deb nomlanadigan nasriy asarida quyidagi baytni to'qqiz yoshida yozganligini qayd etadi:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imloyi savodim.

Bo'lajak shoir o'n yoshlarida Fuzuliyini sevib o'qigan. Zokirjon 1870-yilda Ashur

1. X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma'naviyat. 2009. B.57.

Muhammad qoridan Qur'on qiroatini o'rgandi. 1871-1872-yillarda mudarris Poshshoxo'ja eshondan arab tilini o'rganib, madarasa ta'limiga tayyorgarlik ko'radi. Nihoyat, 1873-yili, 14yoshida madrasaga kiradi. Biroq zamon o'zgarib, bosqinchilar tomonidan Qo'qon xonligi tugatilganligi va barcha madrasalar yopilganligi tufayli o'ta zehnli bo'lishiga qaramay, Zokirjon ta'limni oxiriga yetkaza olmadi. 1879-yilda bo'lajak shoir yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) ga do'kondor tog'asi huzuriga boradi. Bir muddat tog'asi qo'lida ishlagan Zokirjon, keyinroq o'zi kichik do'kon ochib, mustaqil ish yuritadi. Ayni vaqtda, u o'z bilimni oshirish bilan shug'ullandi. Shaxsiy muallim topib, undan dars oldi. Tez orada shaharning eng o'qimishli, bilimdon kishilardan biriga aylangan Zokirjon endi boshqalarga xususiy darslar berdi, mirzalik xattotlik qildi. Lekin bu yillar Furqat uchun she'riyatga oshuftalik davri bo'ldi, deyish mumkin. Ta'sirchan yigit to'lig'icha she'riyatga berildi. Shoirning "Furqat" – ayriliq taxallusini olishi ham Yangi Marg'ilonda yashaganidan bo'lsa kerak, degan qarashlar bor. Lekin Furqat ijodini sinchiklab o'rgangan tadqiqotchi Nurboy Abdulhakim sakkiz yasharligida "Mantiq ut-tayr" asaridagi so'fiyona qarashlardan bahramand bo'lgan shoir taxallus tanlashda Alloh jamolidan judolikni ko'zda tutgan bo'lsa kerak, degan fikrni bildiradi.

Adabiyotshunos V.Rahmonov esa shoirning quyidagi bayti tahlilidan shu savolga javob topgan:

Zamon ahli shu boisdan taxallus Furqatiy derlar:

Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.

(Bayt mazmuni: Bir necha yil bo'ldiki, husni bilan zamonga g'avg'o solgan go'zalimdan adashib qolganman. Shuning uchun zamon ahli meni Furqatiy deydilar.)

Furqat otasining qistovi bilan 1880-yilda Qo'qonga qaytib keladi. Biror doimiy yumush bilan band bo'lmagan iste'dodli shoir butun kuchini ijodga yo'naltirdi. Uning g'azal va muxammaslari she'rxonlar orasida keng yoyiladi. Muqimiy singari mashhur shoirlar ham uning ayrim g'azallariga muxammaslar bita boshlashadi. Furqat shu davrda "Hammomi xayol" nomli risola yozadi. "Chor darvesh" va "Nuh

manzar” asarlarini fors tilidan o‘zbekchaga o‘giradi. She’rlarini to‘plab devon tuzadi. O‘zbek adabiyoti tarixida 21-22 yoshida devon tartib bergan shoirlar ko‘p emas. Biroq bularning birortasi ham bizgacha yetib kelmagan. Shu yillarda u uylanadi. Ammo shoirning oilasi tezda buziladi va u 1886-1887-yillarda Marg‘ilonga ketadi. Shaharning “Masjidi jome” sidan bir hujrani olib yashay boshlaydi. Ko‘p o‘tmay Muhammad Sharif ismli savdogar do‘sti ko‘magida choy do‘koni ochadi. Lekin savdo ishiga unchalik mohir bo‘lmagan shoir sinib, do‘konni yopishga majbur bo‘ladi.

Furqat 1888-yilning oxirlarida Toshkent safariga otlanadi. Kech kuzda Xo‘jandaga keladi va u yerda qon tomir kasalligi bilan og‘rib yotib qoladi. Yuzalganidan keyin ham quvvatga kirguncha shaharda qolib, ziyoli va tabib nazmi bor kishilar suhbatida bo‘ladi. 1889-yilning iyuni o‘rtalarida u Toshkentga keladi va Hoji A’zam ismli kishi yordami bilan Ko‘kaldosh madrasasida bir hujraga joylashdi. Shu kishi tufayli Toshkentning ko‘zga ko‘ringan ziyolilaribilan tanishib, do‘stlashadi.

Toshkentda furqat Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, “Turkiston viloyatining gazetisi” muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. 890-yilning 23-martida muharrir uni Toshkentning Yangishahar qismiga tomoshaga olib boradi. N.Ostroumov Furqatni juda ko‘pchilik rus amaldorlari, rus xizmatidagi o‘zbeklar, hatto general-gubernator bilan tanishtiradi. Shu yurishlar natijasida “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Nag‘ma bazmi xususida”, “Vistavka xususida”, “ Vistavka xususida”, “Suvorov” kabi she’rlari ”Turkiston viloyatining gazetisi” da chop etiladi. 1890-yilaprelida Furqat shu gazetaga tarjimon bo‘lib ishga kiradi. 1891-yili “Turkiston viloyatining gazetisi” da “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni” deb nomlangan tarjimayi holi bosiladi.

1891-yilning 14-mayida Furqat Samarqandaga, xat orqali do‘stlashgani Mirzo Buxoriy otli ziyoli savdogar va etnograf olim huzuriga yo‘l oladi. Bu yerda bir yarim-ikki oy turgach, iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poezdga o‘tirib, Marv, Ashxobod, Boku, Botum orqali Istambulga yo‘l oladi. U yerda Sultontepadagi takyaga qo‘nadi. Shoir bu erda ham tinimsiz ijod qiladi. 280 misralik ”Sabog‘a

xitob” she’ri Istambulda yozilgan asarlaridandir. Turkiyadan shoir Yunoniston va Bulg’oriyaga sayohat qiladi. 1892-yilda Furqat yozadi: “Iskandariya va Misr va Shom taraflarini sayohat qilib, andin Madinayi munavvarga va Makkayi mukarramaga borib, ba’daz ziyorat, Bombay va Hindiston muzofotlarini sayr-u tomosho qilmoqchidurman”. Shu yilning 25-avgustida Hindistonga yo‘l olgan shoir 10-sentabr kuni Bombayga yetib keladi. Bu yerda Hoji Ahmad degan yurtdoshinikida olti oycha yashaydi. 1893-yilning 20-martida Kashmir tomon yuradi, Tibet va Xo‘jand orqali oktabr oyida Yorkentga yetib kelgan Furqat umrining oxirigacha shu yerda qolib ketadi.

Shoir Qashqardagi rusiya musulmon idorasida kotib bo‘lib ishlaydi. Ilmi nujum, tabobat bilan shug‘ullanadi. Ra‘no ismli ayolga ulanib, farzandalar ko‘radi. U to 1906-yilgacha Turkiston bilan, “Turkiston viloyatining gazetasi” bilan aloqasini uzmaydi. Furqatning so‘nggi maqolasi ushbu gazetada 1906-yilning fevralida bosilgan. “Davomi bor” deyilganiga qaramay, negadir boshqa qismi bosilmagan. U Yorkentning Dongdor qabristoniga dafn qilingan. Adabiyotshunos olim Nurboy Abdulhakimning aniqlashicha, 1958-yilda yo‘l tushishi munosabati bilan y qabriston buziladigan bo‘lib, jasadlar ko‘chirilganda, Furqat jasadining bosh qismi oldin qanday bo‘lsa, shundayligicha turganligi ma’lum bo‘lgan. Bu hol shoirning o‘zgacha xususiylarga ega shaxsligidan dalolat beradi.

Furqat – lirik shoir

O‘zbek adabiyotiga yangicha yo‘nalishlar kiritgan shoir Furqat adabiy merosining asosiy qismini lirika tashkil etadi. U o‘zbek adabiyotida gumanistik lirikaning rivojiga hissa qo‘shgan shoirdir. Furqat o‘zining eng yaxshi lirik asarlarida Lutfiy, Navoiy, Fuzuli, Bobur, Mashrab, Ogahiy singari ustozlarning tajribalariga suyanganholda o‘zbek lirikasining ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. U she’rlarida insonning g‘oyat murakkab, to‘liq tasvirlash mushkul bo‘lgan ruhiy holatlarini ifodalay olish iqtidorini ko‘rsatdi. Furqatning lirika sohasidagi dastlabki mashq qilish davri g‘oyat qisqa bo‘lgan. Uning she’rlari nazm ahliga manzur bo‘lgani uchun

ham yosh yigitlik yillaridayoq alohida devon tartib berilgan “O‘lturg‘usi” radifli g‘azaliga Muqimiydek taniqli shoir taxmis bog‘lagan.

Furqat lirikasining katta qismida ko‘p asrlik an‘anaga muvofiq, ishq mavzusi qalamga olinadi. Lekin Furqat o‘z davrining shoiri edi. Davr esa bu vaqtga kelib tubdan o‘zgargan, yangilangandi. Binobarin, shoir lirikasida ana shu yangi davrda yashayotgan yangi odamning quvonchlari, iztiroblari, kuzatish-u xulosalari tasvir etiladi. An‘analrga to‘liq rioya qilib yaratilgan lirik she’rda ham kutilmaganda zamonning muammosi aks etadi. Furqat eng yuksak she’riy an‘analar ruhida, arab va fors adabiyotining yuqori tajribalari ta’sirida shakllangani, nozik ruhiy jilvalarni batafsil tasvirlashga intilgani uchun ham shoir asarlari tili Muqimiy she’rlarinikiga qaraganda murakkabroq. U turli xil tuyg‘ularni, chigal hayotiy vaziyatlarni aks ettirishda arab, fors so‘zlaridan unumli foydalanadi.

Furqat lirikasining tabiatini, undagi yetakchi yo‘nalishlarini belgilashda “*Qosido, ayg‘il o‘shal dildorg‘a*” deb boshlanadigan g‘azal alohida o‘rin tutadi. Shoirning bu she’rida uning olamni mutasavvuf ko‘zi bilan ko‘rishi, so‘fiylik tuyg‘ulari bilan his etishi yaqqol nmoyon bo‘lgan. Bu g‘azal ham aslida ishqiy mavzuda. Lekin bu o‘rinda qalamga olingan ishq faqat majoziygina bo‘lib qolmay, ilohiy xususiyatga ham ega. Qizig‘i shundaki, shoir g‘azalning ilohiy mohiyatini darrov ko‘z-ko‘z qilmaslikka, pardada tutib turishga urinadi:

Qosido, ayg‘il o‘shal dildorg‘a,

Bir tarahhum aylasun men zorg‘a

Ikkinchi baytda o‘zining ma’shuqa rahm-shafqatiga zorligi sababini izohlaganday bo‘ladi:

Tushti savdoyi judolig‘ boshima

¹. X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma’naviyat. 2009. B.57.

Yurmisham rasvo bo‘lub bozorg‘a

jo‘ngina so‘zlardan iborat bu bayt zamiriga teran mazmun yashiringan. Chunonchi, “savdoyi judolig‘” birikmasi Allohdan ayriliqni, “bozor” eas dunyoni anglatadi. Yaratgandan judolik oshiq “rasvo” ligiga sababdir. Keyingi baytda shoir o‘z holatini o‘zgalar nazari bilan baholaydi:

Ba‘zilar holim ko‘rib majnun dedi,

Bilmaganlar o‘xshatur hushyorg‘a.

Oshiqning holini ko‘rganlar uning “majnun” - telba ekanligini aytishadi, bilmaganlar esa sog‘ odamga o‘xshatishadi. Chin ishq yo‘lida dunyodan kechish, o‘tkinchi dunyoning omonat tartiblaridan yuz o‘girish - majnunlik belgisi. Oshiq o‘zining ishq ahlidan ekanini biladi. Faqat bilmaganlargagina u oddiy odam ko‘rinadi. To‘rtinchi baytda ana shu ikki xil munosabat tufayli yuzaga kelgan holat tasvirlanadi.

G‘azalning beshinchi baytida shoir ko‘nglidagi so‘fiyona tuyg‘ularni ochiq bildiradi. She‘rning asl tasavvufiy mohiyati ham ayni shu o‘rinda namaoyon bo‘ladi. G‘azalning qahramoni haqiqiy ishq yo‘lida har qanday sinovga tayyorligini bayon etadi:

No‘sh etib avval muhabbat bodasin,

So‘ng osilay Mansur osilg‘on dorg‘a.

Ma‘lumki, mashhur so‘fiy Mansur Xalloy, azbaroyi allohga bo‘lgan hadsiz muhabbati haqi, o‘zidan kechib, “men” ligini yo‘qotib: “Ana al-Haq”, ya’ni “Men xudoman”, degan va johillar tomonidan dorga tortilgan. Furqat ham g‘azalda o‘z muhabbati miqyosini, darajasini buyuk Mansurning holatiga mengzaydi. Shoir bu qadar yuksak tuyg‘ularni, odamni o‘zidan kechishga olib boradigan holatlarni hamma ham tushunavermasligini shunday ifoda etadi:

Dilda ohi bo‘lmog‘on bedardni,

Mahram etma har nechuk asrorg'a.

Chindan ham kishining dardiga begonalik, uning o'ziga begonalikdir. Chunki dard – ko'ngil hosilasi. Inson ko'ngilini anglamagan kimsa, qon jihatdan unga qanchalik yaqin bo'lmasin, baribir begonadir. Shu bois shoir bedardga ko'ngil sirlarini aytmaslik kerak, deb hisoblaydi. G'azalning teran va zalvorli ma'nosiga u qadar mos kelmaganday tuyuladigan bir qadar yengil ohang uning o'qilishi va anglanishini osonlashtirga. She'rga tarovat, shira bag'ishlagan.

Shoirning "*Muncha zolim bo'lmish ul xunrez tarso ko'zlaring*" misrasi bilan boshlanadigan g'azali an'anaviy yo'sinda bitilgan. Furqat ma'shuqaning ko'zlari oshiqqa turfa yo'llarda azob berayotganini o'zigagina xos mahorat bilan aks ettiradi:

Muncha zolim bo'lmish ul xunrez tarso ko'zlaring,

Kim solur islom eliga sho'r-u g'avg'o ko'zlaring.

Mumtoz shoirlar yor vujudining harbir muchasidan yog'iladigan azoblarni tasvirlashning boy an'anasiga ega. Bunda ma'shuqaning kiymidan tortib, ko'zi, qoshi, kipriklari, tishlari, qo'llari turli yo'llar bilan oshiqqa azob berishi tasvirlanardi. Furqat birgina ko'z vositasida ma'shuqa oshiqni qanday holatlarga solganligini shunday yangicha ifodalaydiki, shoir mahoratiga tan bermaslik mumkin emas. G'azalning dastlabki baytlarida yorning ko'zlari qon to'kuvchi, gunohkor, mo'minlar orasiga g'avg'o soluvchi, zulfi esa ko'ngillarni band etguvchi sifatlari bilan ko'rsatildi. Uchinchi baytda ko'zlarning "vazifasi" bir qadar o'zgarganday bo'ladi:

Ketkil ul yon deb, ishorat qilsa har gah qoshlaring,

Kel beri deb, aylashur ohista imo ko'zlaring.

tasvir – o'ta hayotiy va ishonarli. Yorning uchmoqqa shaylanib yoyilgan qanot singari kerilgan qoshlari oshiqqa: "Ket!" desalar, hozirgina g'azab sochib turgan ko'zlari unga: "Kel!" deya imo qiladi. Oshiq qay biriga quloq osishini bilmay hayron. Zamonaviy o'quvchi bu satrlar zamiridagi ma'noni ilg'ab olishga

qiynaladi. Holbuki, milliy axloqimiz talablariga ko'ra qiz yigitning o'ziga ma'qul bo'lganini ochiq aytmaytdi, aytolmaydi. Sirtida "nari ket" desada, ko'ngli kelishini istashi mumkin. Ma'lumki, ko'z – ko'ngilning oynasi. Demak, unga ishongan ma'qul.

Shoir sakkiz baytli g'azalning maqta'sida tasvirning an'anaviy uslubiga to'liq qaytadi. Ya'ni oshiqni abgor qilgan narsa yorning ko'zigina emasligini aytib, bir qator boshqa muchalarni sanaydi.

Qildi Furqatni xarob-u xasta-u zor-u zabun,

Xol-u xatting, qaddu ruxsoring , na tanho ko'zlaring.

Shoir oshiqning xor bo'lishiga yorning yolg'iz ko'zigina emas, uning xoli, qomati, yuzi ham hissa qo'shganini bildiradi. Furqat hozirgi "va" teng bog'lovchisi vazifasini bajaruvchi "u" tovushini besh o'rnida qo'llab, baytga yoqimli ohang bag'ishlash va qahramon holatini to'laroq anglatishga erishadi.

Furqatning *"Koshki bir yerda bo'lsak erdi jonon ikkimiz"* satri bilan boshlanadigan g'azali - muhabbat mavzusidagi boshqa she'rlarga qaraganda ancha nekin, umidbaxsh. Bu asarda yordan nolish, u bergan azoblarni sanash emas, balki xayolan bo'lsada, yor bilan kechirish mumkin bo'lgan farahli lahzalar aks ettirilgan:

Koshki bir yerda bo'lsak erdi jonon ikkimiz,

Ko'zi shum ag'yorlardin anda pinxon ikkimiz.

Oshiq orani buzish bilan mashg'ul ag'yorlar ko'zidan panada jonon bilan bo'lishni orzu etadi. Oldingi she'rlardagidan farqli tarzda, davron ma'shuqaga ham vafo qilmaydi. Shu bois, davr keltirgan jafolaridan qutilish har ikkovi uchun ham zaruriyat:

Har zamon davron jafosidan qilibon boda no'sh,

Mastlikdan aylasak qayg'uni yakson ikkimiz.

Furqat - tasvirning maromini ushlashda, uning hayotligiga erishishda o'ta haqiqatgo'y. Ma'lumki, mast odamlarda butun narsani buzishga moyillik bo'ladi. Shuning uchun hamoshiqning bodani ichib, mast bo'lgachgina qayg'uning uyini yakson qilishni orzu etishi mantiqan asoslangan. Ruhshunoslar xafa qilingan, o'ksitilgan kishilar tez mast bo'lishini ham qayd etishadi. Furqat g'azalning to'rtinchi baytida shu xulosani holatga aylantirib ifodalaydi:

Dahrning ozoridin masti xarobotiy bo'lub,

tarki hush aylab, bo'lub ul yerda hayron ikkimiz.

G'azal qahramonlarini boda emas, balki "dahrning ozori" mast qiladi. Mast odamlar, ko'pincha, qayoqqa yurishni va nima qilishni bilmay, hayronlikda bo'lishadi. Garchi, g'azalning mazmuni so'fiyona bo'lib, ramzlarga asoslangan esa-da tasvirning izchilligiga, uning mantiqiylikligiga erishilgan.

Mumtoz g'azalchilik tajribasida goh-goh uchrab turganidek, mazkur g'azal matla'sining birinchi misrasi hech qanday o'zgarishsiz maqta'ning ikkinchi satri bo'lib qaytariladi. Furqatning tasvir mahorati g'azal yozishda ko'rinadi. Biror tovush o'zgartirilmagani holda ayni misra matla'da orzuni, maqta'da esa armonni ifoda etadi.

Furqat lirikasiga xos eng yaxshi jihatlar uning "*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik*" satri bilan boshlangan g'azalida ham ko'rinadi. Bu she'rida ma'shuqaning faqat bir sifati - nozikligi tasvir etiladi. Aslida, noziklik- ko'proq tashqi jihatni anglatadigan tushuncha. Shoirning ustaligi shundaki, tashqi tomonni ko'rsatishi kerak bo'lgan tushuncha yordamida ma'shuqaning ichki dunyosini aks ettirgan. Shoir yor nozikligini shunchaki madh etmaydi. Tasvir ancha uzoqdan ma'shuqaga qomati nozikligini sarv bilan yosamin, ko'ylagi yupqaligini gul nozikligiga solishtirishdan boshlanadi. So'ng tasvir qamroviga Yusuf alayhissalom olinib, uning husni, shirin so'zligi yorga qiyoslanadi va uning "hama to'g'rida" Yusuf Misriydan ham ortqi ekanligini bildiriladi. To'rtinchi bayt bevosita ma'shuqaning o'zidagi bir dunyo nozikliklarini ko'rsatishga bag'ishlangan:

Kamolingdin halovat topmog‘i jonlarni ondinkim,

Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik.

Furqat keyingi baytlarda go‘zal qoshining qahri, ko‘zining mehri, umuman yorning har jihardan noziklikka “munosib” ligini tasvirlaydi. G‘azal maqta’sida shoir ko‘ngilda aytmoqchi bo‘lgan gaplari ko‘pligini, ammo yor ta’bi nozik bo‘lgani sabab buncha ta’rif-u tavsifini ko‘tara olmasligidan xavotirlanib, qisqaroq qilganini bildiradi:

Quling, Furqat, dilim dardini ko‘p ifsho qilolmasmen,

Ko‘tarmas ta’bi mavzuning, aning fikricha, san nozik.

Shoir yordagi maqtovg‘a loyiq jihatlarni uning birgina sifati- nozikligiga tayangan holda shunchalik mahorat bilan tasvirlab, o‘zining chinakam so‘z san’atkori ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Furqatning “Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur” deb boshlanadigan g‘azali tasvir mahorati jihatidan shoirning eng sara asarlari sirasiga kiradi. She’rdagi obrazlar tizimining bir-biriga chambarchas bog‘liqligi, bir-biridan kelib chiqishi va bir-birini taqozo etishi ajib badiiy tarovat hosil qilgan. Unda butun bilan qism uyg‘unlashganidan tasvir choki bilinmaydi:

Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur,

Balki andin dahr eli ortuqcha g‘avg‘o tortadur.

Shoir tajnisli so‘z imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Birinchi misradagi “tortadur” so‘zi “qo‘ymoq” ma’nosini bersa, ikkinchi qatordagi “tortadur” so‘zi “ko‘taradi” ma’nosida kelgan. Usiz ham qora bo‘lgan ko‘zga surma qo‘yib, qoraytirish oshiqlarning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solib, oh tortishga mahbur etishi mumkinligi shunday tasvirlanadi. Keyingi baytda qism butun orqali idrok etilganligi uchun ifodanin aniqligiga erishiladi:

Qoshlari ostida go‘yo ikki fatton ko‘zlari,

Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur.

Yorning kamon qoshlari ostidagi fitnakor ko‘zlari go‘yo voy otayotgan ikki nafar hindu bolasiga o‘xshaydi. Shoir nega bunday o‘xshatish qilgan? Ma’shuqaning ko‘zlari qop-qora. Ma’lumki, hindlar qora bo‘lishadi. Lekin ularning yoy tortganini qanday izohlash kerak? Mumtoz adabiyotida yor ko‘zi jon olguvchi, qotil deb sifatlanadi. negaki, ko‘z nurlari bilan oshiq yuragini nishonga oladi. Ma’shuqaning porlab turgan ikki qora ko‘zining yonma-yon turib yoy tortayotgan hindu bolalarga o‘xshatilishining sababi shunda.

Shoir ma’shuqaning go‘zalligini tasvirlar ekan, mantiqiy izchillikka amal qiladi. Yor vujudining har bir muchasiga har jihatdan mos keladigan vazifa yuklaydi. Shu sabab, uning zulfi haqida gapirar ekan, oshiqlarning telbalanib, duch kelgan joyga but rasmini chizishlarini tasvirlaydi. Negaki, yor zulfi-parishon, ya’ni tartibsiz. Tartibsizlik esa telbalikning ilk belgilaridan biri. G‘azalning to‘rtinchi bayti tasvir murakkabligi jihatidan ajralib turadi:

Jon ila ko‘ngil taloshur, ey sanam, dard-u g‘aming,

Birini sol ko‘nglumg‘akim, jon birni tanho tortadur

Agar kishi so‘zdagi ma’no nozikliklarga e’tibor qilmasa, baytning ma’nosini anglamasligi, shoirning san’atkorligini sezmasligi mumkin. Bu o‘rinda “dard” so‘zi muhabbat ma’nosida kelganini hisobga olish lozim. Shunda jon bilan ko‘ngulningb ishq bilan g‘amdan qay birini tanlashni bilmay tashlayotgani tushunarli bo‘ladi. Oshiq ma’shuqadan talashilayotgan ikki narsadan bittasini ko‘tara olishi mumkin.

G‘azalning to‘qqizinchi baytida Furqat insonning moddiy va ruhiy jihatidagi bir bog‘liklikdan juda o‘rinli foydalanadi, ya’ni odam tanasida safro ko‘paysa, unda jinnilikka mayl kuchayganidek, boylikka o‘chlik inson ko‘nglini qora qilishini ta’kidlaydi. Shoir insonni boylik emas, ishq ulug‘laydi deb biladi. Shu bois, g‘azal maqta’sida muhabbat azoblarini yengiltak kimsalar tortolmasligini ochiq aytadi:

Bulhavaslar torta olmas nozaninlar nozini,

Furqatidek bekas-u sho‘rida, rasvo tortadur.

Fatton- fitna qiluvchi, fitnakor. Bulhavas- yengiltak, taqlidchi, birovga havas qiladigan kishi. Bekas-u sho‘rida- kimsasiz va gangigan.

Ishq yo‘li o‘zlikdan, nafsdan kechmak yo‘lidir. Muhabbatga o‘zini tikkan, o‘z shaxsiyatini hammadan past ko‘ruvchi kishilargina sevgi sinovlarga dosh berishi, ma’shuqa erkaliklarini ko‘tarishi mumkin.

furqatning “*Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun*” g‘azali ham ishqiy mavzuda bo‘lib, unda ham yorning oshiqqa beparvolik bilan qilgan jafosi, hijronazoblari o‘ziga xos yo‘sinda aks ettirilgan. Garchi she’rda umidsiz oshiq holati, hissiyoti ifodalangan bo‘lsa-da, unga yorug‘ bir kayfiyat muhrlangan. G‘azalda go‘zalning unga ko‘ngli bor-yo‘qligini bilolmay, halak yurgan oshiq tuyg‘ulari qalamga olingan. Oshiq yordan shikoyat qiladi. ayni damda: “*Yordin shikva ne hojat?*” deya o ziga savol beradi.

Furqatning “*Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar*” g‘azali-tabiat lirikasining namunasi. Unda ko‘klam kelishi bilan tabiatda ro‘y berayotgan go‘zal o‘zgarishlarni g‘oyat sinchiklab kuzatgan shoirning qalb kechinmalari aks etgan. Bu she’rda ham xuddi Muqimiyning “Navbahor” g‘azalidagi singari yilning eng dilbar faslidagi go‘zallikdan do‘stlarni bahramand qilishi istagi ifodalangan. Shoir o‘tkinchi umrni go‘zallikqo‘ynida ezguliuk bilan o‘tkazishni istaydi. Chunki bahorgina emas, umr ham o‘tkinchi – “g‘animat”. Matla’dan so‘ng shoir o‘zini muvozanatdan chiqargan, hayajonga solgan ko‘klam manzarasini chizishga tutinadi. O‘zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan mahoratbilan foydalangan shoir o‘quvchiga axborot berib qolmay, unda his-tuyg‘u uyg‘otadi:

Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar.

Furqat ko‘klam manzarasini o‘z holicha tsvirlamaydi, uni jonlantiradi. U atrofdagi har bir unurni dilga yaqin kishiga munosabati nuqtayi nazaridan tasvirlaydi. Ularda

“yoronlar”, ya’ni yor-joralarga intizorlik, intiqlik ko‘radi. Kishi ko‘zini quvontirayotgan bahoriy ko‘katlar shunchaki go‘zal emas, balki yaqinlarni kutib olishga hozirlik ko‘rayotganligi sabab go‘zaldir:

Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,

Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Ko‘klamning eng sara chechaklari sara odamlar- yoronlarni kutib olishga hozirlik ko‘rishadi. Furqat tabiatni tinimsiz harakatda ko‘rsatadi. Ko‘klam manzarasi dinamikasini jonli tasvirlaydi:

Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutashdi olamga,

Tog‘lar chekibon larza, titradi biyobonlar.

Bu satrlar o‘z holicha o‘quvchi tasavvur va xayolotiga ta’sir ko‘rsatadi, tuyg‘ularini bezovta qiladi. U saharda nima ro‘y bergan bo‘lishi mumkinligi haqida o‘yga toladi. Ko‘klam saharida momaqaldir oq gumburlagandir, chaqmoq chaqqandir yoki yomg‘irdan so‘ng charaqlab quyosh chiqqandirki, olam o‘tga burkanganday bo‘lgandir. Xullas, har bir she’rxon o‘z tasavvuridan kelib chiqib, bu misralarni o‘zgacha sharhlash mumkin.

She’rning beshinchi bayti oldingi misralarni kuchaytirishga yangi tafsilotlar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Unda jonli narsalar holati tilga olinadi. Oltinchi baytda g‘azalga ijtimoiy ma’no kirib keladi. To‘g‘ri bu shunchaki an’anaviy ramzlar orqali ifodalanadi:

Bulbul yog‘och yig‘lab, subhidam xazon faslin,

G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Ko‘klamning shundoq farahli ertasida bulbul xazon faslini eslab nola qilgach, u qo‘ngan gulning g‘unchasi ham qon yutib, yoqasini yuz joyidan yirtib yuborganligi ta’sirli tarzda aks ettirilgan. G‘azalning yettinchi baytida bahor tasviriga odam timsoli ham qo‘shiladi. Unda vafo ahli-oshiqlarning ruhiy holati, hayotiy vaziyatga

munosabati ham ko'klamiy obrazlar fonida ko'rsatiladi. G'azalning maqta'sida shoirning vafo ahlining nohaq ranjirilishiga, qadr topmaganligiga kuyunchak munosabati aks etadi:

Kuymasun bu savdodan ne uchun dimog'imkim,

Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Albatta, adolatparvar shoir donolarning g'ussa chekib, nodonlarning shod yashashidan ozorlanadi va buni murakkab ramzlar vositasida jozibali ifodalaydi. Shoir o'z davri uchun g'oyat dolzarb bo'lgan adolat va ma'rifat muammolarini faqat faslning go'zalligini kuylashga bag'ishlaganday tuyuluvchi she'ring zamiriga ustalik bilan singdirib yuboradi. Jaholatdan ozorlanish, ma'rifatsizlikdan yozg'irish Furqatning boshqa qator asarlarida ham bor:

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'man,

Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur

shaklidagi mashhur baytidagi anduh ham ko'ngul ma'rifatiga intiqlikdan tug'ilgan.

Furqat lirik iste'dodining qudrati mavjud an'analarni yangi bosqichga ko'tara olganidadir. Shoirning *"Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang"* satri bilan boshlanadigan mashhur g'azalisw ustoz ozar shoiri Muhammad Fuzuliy ijodi ta'sirida paydo bo'lgan. Hatto she'ring birinchi misrasi to'lig'icha Fuzuliyga tegishli bo'lib, Furqat uni rivojlantirib, yangi badiiy mazmun yuklangan. O'zga shoirning misrasiga tayangan holda tasvir qudrati, ifoda ta'sirchanligi, chizgilarning nozikligi jihatdan ildingidan balandroq badiiy natijaga erishmoq uchun ulkan talant egasi bo'lishi kerak. Furqat shunday iste'dod sohibi bo'lgani uchun ham yorning she'riy suratini yaratar ekan, har bir chizgiga muayyan badiiy vazifa yuklagan. Shuning uchun ham ma'shuqa tasviri devorga ilib qo'yilgan surat emas, balki o'quvchining ko'ngildan joy olgan harakatdagi suratdir:

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,

Go‘zaldin yuzlarda tob-u, o‘smadin qoshlar tarang.

Dastlabki satrlarda ma’shuqaning go‘zalligi tashqi omillar tufayli yuzaga kelganligi tasvirlanadi. Ko‘zning qoraligiga surma, qo‘lning lolarangligiga xina, yuzning go‘zalligiga elik, qoshning tarangligiga o‘sma sabab. Furqatning tasvir mahorati shundaki, tashqi obyektiv omilga ichki- subyektiv xususiyat beradi. “*Qoshlar tarang*” ifodasi harakatdagi chizgidir.

Yaxshi bilasizki, mumtoz adabiyotda qosh doim kamonga o‘xshatiladi. Qoshning tarangligi kamonning tarangligi demakdir. Ya’ni ma’shuqaning egma qoshi oshiqqa qaratilgan tarang kamondir. Uning keyingi misralardagi og‘ir qismati ana shu holatning natijasidir. Keyingi baytda ham turg‘un chizgilar bilan harakatdagi tasvir yonma-yon keladi. Ya’ni ko‘ylak, kamzul statik tasvirlansa, ro‘mol og‘ushida ahvoli tang bo‘lgan peshona esa dinamik ifoda topgan:

Za’faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzihur,

Ro‘ymol og‘ushidin peshonaning ahvoli tang.

Furqat uchinchi va to‘rtinchi bautlarida oltin uzukdan go‘zallashgan nozik panjalar, bilaguzukdan ziynatlashgan qo‘l, kumushday tish, gavharli halqa bilan bezangan quloq, qop-qora soch tasvirini bersa, beshinchi baytda ma’shuqaning o‘zini harakatga keltiradi:

G‘amza birla o‘ltirur, gah jilvalar birla yurur,

Turfa bir noz, ofarin, purishva tannoz u satang.

harakatdagi go‘zalning o‘tirishi ham, yurishi ham o‘zgachs, adoqsiz nozlari ham o‘ziga yarashgan. “*Satang*” so‘zi aslida, salbiy ma’noga ega. Lekin bu she’rda tasvirlangan yorga tatbiqan, hatto shu so‘z ham ijobiy mazmun kasb etadi. Keyingi baytda ma’shuqaning bu qadar yetukligi kishini aqldan ozdirishi mumkinligini ifodasini topadi .

Asl shoir biror soʻz yoki tasvirni bejiz qoʻllamaydi. Shu gʻazalning birinchi baytidagi tarang qosh yettinchi baytga kelib sanoqsiz kipriklar bilan oʻqlangan kamonga aylanadi va oshiq qasdiga shaylanadi:

Yoʻq qutulmoqlik manga, ul ofati jon dastidin,

Qasdim qoshlar kamon, payvasta mujgonlat xadang.

Beqiyos goʻzalga koʻngil qoʻygan bechora oshiqning gohida quvnoq, gohida gʻamgin boʻlishini shoir oʻta nazojat bilan mantiqli asoslaydi:

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sogʻ

Chunki bordur oramizda gohi sulh-u, gohi jang.

Gʻazaldagi qahramon holatini toʻla tushunish mumkin. Beqaror yorning adoqsiz nozlari oshiqni muvozanatdan chiqarishi, uni axir-oqibat oldindan maʼlum boʻlgan jangga kirishga majbur etishi bor gap. Gʻazalning maqtaʼsi tamomila kutilmagan maʼnoga ega. Oshiq yrning unga qilgan jafolarni birorta kofir biror musulmonga qilmasligini aytadi. Holbuki, maʼshuqa kofir emas, oshiq esa shukrki, musulmon. Demak, jafoning bu qadar koʻpligi sababini yorning erka va ayovsizligidan boshqa narsa deb izohlab boʻlmaydi.

Furqatning koʻngil armonlari goʻzal tarzda aks etgan gʻazallaridan biri “*Bahor ayyomida gulgasht etrga bir chaman boʻlsa*” misrasi bilan boshlanadigan asaridir. Sheʼr “bayt ul-hazan” - gʻam uyida yashayotgan oshiqning insoniy baxt haqidagi orzu oʻylari bayonidir:

Bahor ayyomida gulgasht etrga bir chaman boʻlsa,

Qilurgʻa sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan boʻlsa.

Gʻazalning lirik qahramoni uchun bahor chogʻidagi chaman yetarli emas. U koʻngil mavjlarini izhor etish uchun suhbatdosh ham muhabbat dardiga yoʻliqqan boʻlishi kerak deb biladi. Bu suhbatdosh “xazon ayyomi” - kuzda mayxoʻrlikdan tavba qilgan esa-da, may ichish yarashadigan koʻklamda ahdini buzgan boʻlsa yaxshi:

Xazon ayyomida ul tavba qilgan bo'lsa ham maydin,

Yetib mayxoralikning mavsumi paymonshikan bo'lsa.

Keyingi baytlarda shoir munosib do'st, yoqimli ulfat bilan "gasht etish" uchun qanday bo'lsa maqsadga muvofiqligini birma-birtasvirlaydi. Shoirning xayoliga ko'ra, bulut qatra sochuvchi, maysalar ko'ngil ochuvchi, ariqlar labi ko'kalamzor, yoqimli havi, musaffo hovuz, dilkash supa, mavjlanib oqayotgan suv, gul uzra bulbul, daraxt shoxida qumri sayrayotgan bo'lsa, miriqib orom olish, astoyidil ko'ngil yozish mumkin bo'ladi. Lekin shoir uchun muhimi tabiatning go'zalligi emas. Ko'ngilli o'tirish uchun ko'ngilga o'tiradigan suhbatdosh hammasidan muhimroq:

Sabuyi la'l birlan shishayi bayzo-u oltun jom,

O'shal majlisda soqiy bir nigori siymtan bo'lsa.

Oshiqning "nigori siymtan", ya'ni kumush badanli go'zalninf soqiy bo'lishini orzulashi shundan. Shunday go'zallar bilan suhbat qurishga muyassar bo'lgan kishi jannat bog'i-yu, undagi ne'matlarni orzu qilmaydi:

Kishi tubi-yu kavsar jannat-u rizvonni ne qilsun?

Jahon ayvonida hosil bu yanglig' anjuman bo'lsa.

Shoirning "Bormasmiz" radifli g'azalida Furqat shaxsiyati, uning umr bayoniga daxldor jihatlar yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. She'rda komillik yo'liga kirgan orif shaxs hayotiy qarashlari bayon etilgandek bo'ladi. G'azalning qahramoni – o'z qadrini biladigan, insonlik g'ururini boylik va manfaatdan ustun qo'ya oladigan shaxs:

Biz istig'no eli qichqirmag'an ma'voga bormasmiz,

Agarchandeki xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz.

Aytilmagan joyga bormaslik, xirmon qilib uyub qo'ysalar-da, boylikka intilmaslik lirik qahramonning qo'lidan keladi. Shoirning asosiy shiori - malollik keltirmay

yashash. U nafaqat jamiyatning, balik tabiatning malolatiga ham sababchi bo'lishni istamaydi.

Agar labtashna qolsak, filmasal, sahroui olamda,

Malolat zohir etsa, mavj uran daryoga bormasmiz.

G'azalning keyingi baytalarida lirik qahramon yaxshilikni faqat Allohdan kutishini, foyda uchun duch kelgan odamnikiga boravermasligini, ayniqsa, dimog'dor, kibrli, ko'ngil ma'rifatidan yiroq kimsalarga yaqinlashmasligini bildiradi. Bu o'rinlarda tasavvufiy ma'rifat tushunchasi bilim olish ilm o'rganish ma'nosidagi ma'rifat tushunchasi bilan birlashib ketganday bo'ladi. She'rda: "*Bormasmiz*" tarzida ko'pchilik nomidan gapirilishi ham shundan dalolatga o'xshaydi. Agar so'fiyona ma'rifatgina ko'zda tutilgan bo'lsa, shoir faqat o'zi to'g'risida so'zlashi mumkin edi. She'rda shoir o'zinigina emas, o'zi singarilarning ham nuqtayi nazarini ifoda etayotganga o'xshaydi. Zero, shoir bu musaddasida :

Uch xarobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,

Xum boshidin charx urub, monandi bir parvonamiz,-

deb yozganida ham yolg'iz o'zini emas, maslakdoshlarini ham ko'zda tutadi.

G'azalning oltinchi baytida so'fiyona ruh yaqqol namoyon bo'lib, shoir ko'zda tutayotgan kishilar faqr elidan ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ma'lumki, tasavvufda komillikka erishish uchun bosib o'tilishi zarur bosqichlar qatorida "istig'no", "faqr" ham bor. Lirik qahramon ana shu bosqichdan o'tish istagida bo'lganlar nomidan boylik uchun jahongirlar oldiga ham bormasliklarini so'zlaydi:

Biz ellar - faqr elimiz, parcha nong'a sabr aylarmiz,

G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a bormasmiz.

Shoir – e'tiqodida sobit. U bu yolg'on dunyodan ketguncha ham qarashlarini o'zgartirmoqchi emas. Shu tariqa she'rda o'z qadrini bilgan, ezgulikka intilgan, haqiqatga astoydil yetmoqchi bo'lgan solik tuyg'ulari samimiy ifoda etilgan:

Emasdur oncha asbobi jahong‘a fikrimiz, Furqat,

Vale ketguncha juz andishayi fardog‘a bormasmiz.

Lirik timsol va yaqinlari o‘z hol-u imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. Dunyo tartiblari ularning fikri bilan belgilanmasligini anglashadi. Shunday bo‘lsa-da, ular o‘z qarash va e‘tiqodlaridan qaytmoqchi emaslar. Shu tariqa g‘azalda ko‘ngil ma‘rifatga ega shaxslar holati juda ta‘sirli aks ettirilgan.

Furqat ma‘rifatchilik adabiyotidagi eng yorqin iste‘dod egasi edi. Shoirning dastlabki she‘rlaridan tortib, umrining so‘ngiga qadar yaratgan bitiklarida kishilarni ma‘rifatga chorlash, ilmning ahamiyatini targ‘ib qilish ustuvurdir. Fikrini yangilamay turib, hayotni yangilash ham, yaxshilash ham mumkin emasligini anglab yetgan shoir “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Gimnaziya”, “Vistavka xuxsida” va boshqa bir qator masnaviylarida hamda ko‘plab g‘azallarida ma‘rifatchilik qarashlarini oldinga suradi, ilmning ahamiyatini uqtirib, kishilarni ilm o‘rganishga chaqirishdan charchamaydi. Chunki u dunyoda sog‘lom aqlga muvofiq tartib o‘rnatmoq, odamlarni baxtliroq qilmoq uchun, avvalo, ilm zarurligini anglab yetgan va buning uchun harakat zarurligini tushunib olgan ijodkor edi.

Shoir Toshkent safari natijasida yozilgan “Ilm xosiyati” masnaviysida odam qadri, bahosi uning bilim darajasi bilan bog‘liqligini, ilm barcha mushkulliklarini hal qilish yo‘li ekanini, lekin buni anglamoq uchun odamning aqli joyida bo‘lishi kerakligini ifoda etadi:

Deyin so‘zni ilmning xosiyatidin

Bayon aylab, aning mohiyatidin.

Bu so‘zni go‘shi bor odam eshitsun,

O‘zida hushi bor odam eshitsun.

Shoir masnaviyga xos voqebandlik yoʻlidan boradi. Buning uchun Iskandar Zulqarnayn hayoti yurishlarini aks ettiradi. Lekin shoir jahongirning zafarlari ilm bilan bogʻliq ekaniga urgʻu beradi:

Aning kim lshkari olamgʻa toʻldi,

Nizomni zabt hikmat birla toʻldi.

Furqat Iskandarning “oyinayi jahonbin” kabi kashfiyotlari haqida soʻzlab, zamon hodisalarini tasvirlashga, shu yoʻl bilan oʻz zamondoshlariga ilmning ahamiyatini taʼsirliroq anglatishga harakat qiladi:

Boʻlub shul asr hikmat hadsiz,

Fatonat ahli donishmand adadsiz.

Ulum-u Aflotundin afzal,

Kamoli aql-u donish birla akmal.

Shoir ilm egallash, tarqqiyotga erishish oʻtmishda qolib ketgan ish emasligini, bugungi kunda ham ilm-u hunar egallab, yuksaklarga chiqish mumkin ekanligini shu tariqa asoslaydi. Furqat oʻz oʻquvchilarining saviyasini, tushunchalarini hisobga olgan holda ilmning foydalari haqida sof amaliyotchilik nuqtayi nazaridan fikr yuritadi. Shuning uchun ham “tiligrom” ning ahamiyatini, undan keladigan foydalarni sheʼrda batafsil tasvirlaydi. Masnaviyning soʻngida shoirning maʼrifatchilik qarashlari toʻla aks etgan satrlar bitiladi:

Jahon bast-u kushodi ilm birlan,

Nadur dilni murodi ilm birlan.

Koʻngillarning sururi ilmdadaur,

Koʻrar koʻzlarning nuri ilmdadur.

Ma'rifatchilik yo'nalishdagi bu qarashlar Furqat ijodining bosh g'oyasini ifoda etadi, deyish mumkin. Shoir ma'rifatchilki yo'nalishdagi asarlarida faqat chaqirig'-u xitoblar qilmaydi. Balki u tasvir maromini shunday belgilaydiki, ma'rifatchilik g'oyalari chinakam insonga xos nozik va pokiza tuyg'ularga yo'g'rilgan holda beriladi. Chunonchi, shu masnaviy so'ngidagi bayt shoir shaxsiyatiga xos yetuklikni aks ettiradi:

Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,

O'zumni jahl zindonig'a soldim.

Furqatning ijodi o'zbek ma'rifatchilik adabiyotining baland parvozidan dalolat bo'ldi.

Zokirjon Furqat chin ma'nodagi ilk o'zbek jurnalistlaridan biridir. Fikrimizni Furqat qalamiga mansub o'nlab xabarlardan tashqari, "Turkiston viloyatining gazetisi" da 1891-yilning yanvar-iyun oylarida davomli chop etilgan "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli. O'zi yozg 'oni" deb ataluvchi memuar asar ham isbotlaydi. Adabiyotshunoslikda bu asar "Furqatnoma", ba'zan "Sarguzashtnoma" nomlari bilan yuritiladi. Bu asar shoir hayot yo'li, dunyoqarashini aniqlash borasida katta ahamiyat kasb etadi.

"Furqatnoma" jiddiy ma'rifiy ahamiyatga ham ega. Unda shoir shaxsiyatining kamolot yo'li g'oyat rostgo'ylik bilan yoritilgan. Uning yetti yoshdan maktabga borgani, sakkizda "Mantiq ut-tayr" ga oshno bo'lgani, to'qqiz yoshdan hazrati Navoiy asarlarini o'qiy boshlagani, to'qqiz yoshdan hazrati Navoiy asarlarini o'qiy boshlagani, o'n bir yoshida Qur'oni karimni xatm qilgani haqidagi xabarlar, ustoz to g'risidagi ma'lumotlar g'oyat qiziqarli va jimjimador uslubda bayon etilgan. Furqatning : *"...ul vaqtlarda Rusiya xalqidin biror odamni bozorda ko'rsam, qochib, yiroqdin o'tub ketar erdim. Hatto o'rus birla so'zlashgan odamni yomon ko'rar erdim"*, - tarzidagi iqrori uning g'oyat to'g'ri so'z odam ekanligini ko'rsatadi. bu vaqtda shoirning Nikolay ostroumov muharrirlik qilayotgan shu gazetada tarjimon

bo‘lib ishlayotganligi nazarda tutilsa, uning bitganlari Furqatning mardaona shaxsiyatini ko‘rsatadi.

Shoir “Furqatnoma” ning keyingi qismlarida Toshkentga kelib ko‘rgan yangilkilar haqidagi taassurotlarini bayon etadi. Bosmaxona, gimnaziya, muzey, ko‘rgazma, teatr singari bizga begona bo‘lgan tushunchalarning mohiyatini g‘oyat sinchovlik bilan ko‘rsatib beradi. Ayni vaqtda, ulardan ibrat olish yo‘li bilan turmushimizni yaxshilashga undaydi.

Furqat ijodi misolida ko‘rinadiki, yangi o‘zbek adabiyoti xalq hayotidagi muammolar haqida umumiy fikrlar bildirishdan xalqning muayyan tarixiy bosqichdagi turmushiga tegishli aniq masalalarni tasvirlashga o‘tdi. Adabiyotning mavzular ko‘lami, yo‘nalishi, janrlari yangilana bordi.

Savol va topshiriqlar

1. Furqatning bolalik davriga oid ma’lumotlarga e’tibor qiling. Zokirjonning o‘ziga xos jihatlari nimada edi?
2. Furqatning hayot yo‘li bilan ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlikni toping.
3. Furqat sayohatlarining shoir dunyoqarashiga, dunyoqarashining esa ijodiga ko‘rsatgan ta’sirini ifodalab bering.
4. Shoir ijodidagi so‘fiyona ohanglarni toping va ularning qanday paydo bo‘lganligi haqida mulohaza yuriting.
5. Furqat g‘azallarining badiiy xususiyati haqida o‘ylab ko‘ring. Ularga xos xususiyatlarini aniqlang.
6. Shoirning o‘rganilgan she’rlariga tayanib, Furqat lirik asarlarining qahramonlari tabiatiga xos jihatlarni aniqlang.
7. “Kalomingdin halovat topmog‘i jonlarni ondinkim,

Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik” baytida Furqat mahorati qanday namoyon bo‘lganligiga to‘xtaling.

8. “Bormasmiz” radifli g‘azaliga tayanib, shoir shaxsini baholang.

9. Furqatning ma’rifatchilik adabiyoti rivojida o‘rniga to‘xtaling.

10. Shoirning “Ilm xosiyati” masnaviysini tahlil qiling.

11. Furqat ma’rifatchiligi so‘fiylikdagi ma’rifatga chaqiriqdan qanday farqlanadi?

12. “Furqatnoma” asarida adib shaxsiyatining qaysi jihatlari namoyon bo‘lganligiga to‘xtaling.

¹. X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma’naviyat. 2009. B.87.

II BOB
UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FURQAT IJODINI O'RGATISH
USULLARI HAQIDA

Furqat
(1959-1909)

Keys-stadi usuli.

Keys-stadi, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, savol-topshiriq, tahlil usuli, aqliy hujum.

(1 soat dars mashg'uloti uchun materiallar)

Keys-stadi usuli:

Vaziyat: Furqat hayoti va ijodi

Savollar

1. Furqat hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Furqatning ijodiy faoliyati
3. G'azallari, muxammaslari, musaddasi.

Furqatning qanday ilmiy asarlarini bilasiz?

Javoblar:1. Furqat hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar.

1. Furqat hayoti va ijodi

1. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat 1859-yilda Qo'qonda hunarmand oilasida tug'ilgan.
2. Shoir 1870-yilda Ashur Muhammad qoridan Qur'on qiroatini, 1871-1872-yillarda Poshshoxo'jadan arab tilini o'rganadi. 14 yoshidan (1873) madrasadagi o'qishga kiradi.
3. 1879-yilda Marg'ilonga boradi va 1880-yilda Qo'qonga qaytadi.
4. 1886-1888-yillarda Marg'ilonda bo'ladi.
5. 1889-yilda Toshkentga keladi, 1891-yilda Samarqandga boradi.
6. 1892-yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo'ylab sayohat qiladi.

7. 1893-yilning bahorida Kashmir, Tibet va Xo‘tan orqali Yorkentga o‘tib, shu yerda umrining oxirigacha turg‘un bo‘lib qoladi.
8. 1906-yilgacha Turkiston bilan, “Turkiston viloyati gazetasi” bilan aloqada bo‘lgan.
9. Furqat 1909-yilning kuzida Yorkentda vafot etgan.

2.Furqatning ijodiy faoliyati

Furqatning adabiy merosi quyidagicha:

1. Lirik asarlar.
2. Publitsistik asarlar.
3. Tarjimalari.
4. Ilmiy asarlar.

Furqat lirikasi g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mistazod kabi janrlardan iborat bo‘lib, g‘zallarining soni 200 atrofida.

3.G‘azallari: “Bir qamar siymoni ko‘rdim baldayi kashmirda”, “Surmadin ko‘zlar qaro...”, “Surating”, “Adashganman”, “Fasli navbahor o‘ldi...”, “Muncha zolim bo‘lmish ul hunrez qaro ko‘zlaring...”, “Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik...”, “Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur...”, “Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun...”, “Bormasmiz”, “Bahor ayyomida...”, “Koshki kulbam aro...”, “Fig‘onkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim”, “Hasrato, kel-kel beri, ul sho‘xi jondin gapir” va boshqalar.

Muxammaslari: “ Kishi xolin bilmas, mehribondin adashganman”, “Manam sho‘rida bulbul bo‘stonidan adashganman” va boshqalar.

Musaddasi: “Sayiding qo‘yaber, sayyod”.

Ilmiy asarlari:

1. “To‘y tavsifi”.
2. “Gap ta’rifida”.
3. “Aza tavsifi”.

¹N.Karimov, T.Mirzayev, B.Nazarov, U.Normatov, B. Qosimov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. Toshkent. 2002. B.93.

4. “Ilmi ash’orning qoidai avzoni”.

Masnaviylari:

“Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Vistavka xususida”, “Suvarov” va boshqalar.

Aqliy hujum

Savollar

1. Furqat lirikasi haqida ma’lumot bering?

Javob: Furqat lirikasi g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mistazod kabi janrlardan iborat bo‘lib, g‘zallarining soni 200 atrofida.

2. Furqatning qanday g‘azallarini bilasiz?

Javob: “Bir qamar siymoni ko‘rdim baldayi kashmirda”, “Surmadin ko‘zlar qaro...”, “Surating”, “Adashganman”, “Fasli navbahor o‘ldi...”, “Muncha zolim bo‘lmish ul hunrez qaro ko‘zlaring...”, “Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik...”, “Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur...”, “Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun...”, “Bormasmiz”, “Bahor ayyomida...”, “Koshki kulbam aro...”, “Fig‘onkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim”, “Hasrato, kel-kel beri, ul sho‘xi jondin gapir” va boshqalar.

3. “Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azali mazmuni haqida ma’lumotlar bering?

Javob:

4. G‘azaldagi ilgari surilgan g‘oya qanday?

Javob:

5. G‘azal mazmunini izohlang?

Javob:

6. G‘azal janri haqida ma’lumotlar bering?

Javob: G‘azal arabcha so‘z bo‘llib, oshiqona so‘z, ayollarga xushomad kabi ma’nolarni anglatadi. Bu janr Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda eng ko‘p qo‘llangan she’r shakli bo‘lib, o‘tmishda g‘azal yozmagan ijodkor bo‘lmagan.

7. Fasl go‘zalligiga bag‘ishlangan she’rning ijtimoiy ruhdagi fikr bilan yakunlanishini qanday izohlaysiz?

Javob: Har qanday narsadan go‘zallik izlash va undan umidvor bo‘lish negizida insonlarni yaxshilikka chorlash g‘azalning bosh motividir.

8. G‘azalning birinchi misrasidagi “zimiston” so‘zi ma’nosi nimani bildiradi?

Javob: Yomon kunlarning ortda qolganligini va doimo yaxshilik g‘alaba qozonishini kabi ma’nolarni bildiradi.

10. She’rdan olgan taassurotlaringiz qanday?

Javob: She’r har bir insonda katta taassurot qoldiradi. Sababi bahor fasli, ona tabiat go‘zalligi har qanday insonni o‘ziga maftun qiladi leb o‘ylaymiz.

11. G‘azalning istalgan bitta baytinining mazmunini izohlang?

Javob:

Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar,

Do‘stlar g‘animatdir sayr eting gulistonlar.

Tarmoqlash usul

Dars ishlanmasi “Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azali.

Tarmoqlash metodi

Ushbu metoddan har bir kichik guruh butun guruh oldida turgan umumiy muammolarning bir jihatini hal qilishga yo‘naltiriladi. Har bir kichik guruh oldida umumiy o‘quv muammosining biror qirrasini yechish turadi va barcha kichik guruhlarining faoliyati natijasida o‘quv muammosi hal qilinadi. Bunda kichik guruh guruhlarining faoliyati natijasida o‘quv muammosi hal qilinadi. Bunda kichik guruh a‘zolari muammoni yechishga qo‘l keladigan dalillarni imkon boricha tez va ko‘proq topishga yo‘naltiriladi.

“Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azali.

Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar,

Do‘stlar g‘animatdir sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam, yog‘I abri naysonlar.

Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,

Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutoshdi olamg‘a,

Tog‘lar chekib larza, titradi biyobonlar.

“Qumrilar ” qilib ku-ku, bulbul aylabon chax-chax,

Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar.

Bulbul o‘qig‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,

G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul girbonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,

Kiydi ko‘k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘imkim,

Ranj-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Topshiriqlar

1. “Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azalini lug‘atlar asosida tahlilga torting.
2. “Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azalini lug‘atlar asosida tahlilga torting.
3. “Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azalini lug‘atlar asosida tahlilga torting.

Faol usul

“Fasli navbahor o‘ldi...”, g‘azali.

Guruh o‘quvchilari uchta guruhga bo‘linadi va ularga savollar beriladi.

Savollar

1. G‘azal mazmuni haqida gapiring?
2. G‘azalni ifodali o‘qing?
3. Gazal‘ni guruh a‘zolari bo‘lib oling, o‘qing va tegishli she’riy parcha mazmunini izohlang?
4. “Qumrilar ” qilib ku-ku, bulbul aylabon chax-chax,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar.
jumlasini ma’nosini ayting?
5. G‘azal qachon yozilgan?
6. G‘azal ahamiyati qanday?

¹. X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma’naviyat. 2009. B.88.

7. Gʻazaldan olgan taassurotlaringiz?

8. Sheʼr qanday boshlanadi?

Interfaol metod

Oʻqituvchining bosh vazifasi dars maqsadiga oʻquvchilarning mustaqil faoliyatini yoʻnaltirishga qaratiladi. Shunga mos ravishda vazifalar koʻlami belgilanadi.

Vazifalar esa interfaol metodlar asosida shakllantiriladi. Bular muammolilik va hamkorlik usullaridir.

Muammolilik

Oʻqituvchi vazifasi – oʻquvchini muammoli situatsiyaga olib kirish.

Oʻquvchi vazifasi esa – bu muammoli situatsiyaning yechimini mustaqil topish.

Ammo oʻquvchi muammodan chiqish uchun yetarli bilimga ega emas.

Shu bois oʻquvchi - oʻqituvchi va boshqa oʻquvchilar koʻmagi bilan kerakli boʻlgan bilimlarni shakllantiradi. Bunda oʻquvchi mustaqil ravishda oʻz mantigʻi, tafakkuri, bilimlarini ishlatishga majbur boʻladi. Eng kuchli muammolilik - oʻqituvchi uchun ham yechimi noaniq boʻlgan muammoga javob topish vazifasini topishdir.

Agar oʻquvchilar muammoni topa olmasalar oʻqituvchining oʻzi muammoni yaratishi mumkin.

“Fasli navbahor oʻldi...”, gʻazali.

Fasli navbahor oʻldi ketibon zimistonlar,

Doʻstlar gʻanimatdir sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, boʻldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam, yogʻI abri naysonlar.

Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib oʻzni,

Nargis ochibon koʻzni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uygʻoq: oʻt tutoshdi olamgʻa,

Togʻlar chekib larza, titradi biyobonlar.

“Qumrilar ” qilib ku-ku, bulbul aylabon chax-chax,

¹.N.Karimov, T.Mirzayev, B.Nazarov, U.Normatov, B. Qosimov. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari 9-sinfi uchun darslik. Toshkent. 2002. B.93.

Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.
Bulbul o'qig'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul girbonlar.
Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.
Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Topshiriqlar

Har bir guruhga alohida – alohida so'zlar va ga'zal baytlarini izohlash topshirig'I beriladi. (mazmunini aniqlash uchun lug'atlar beriladi).

1- Guruh uchun lug'atlar

Abri nayson – ko'klam buluti.

2- Guruh uchun lug'atlar

Nastaron- gul turi.

Yosuman(jasmin) – gul tiru

3- Guruh uchun lug'atlar

Giribonlar – yoqa

Savsan – gulsafsar, qo'g'agul.

G'azal baytlari guruhlar uchun.

1- guruhga topshiriq

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,
Do'stlar g'animatdir sayr eting gulistonlar.
Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'i abri naysonlar.

2- guruhga topshiriq

Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.
Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshdi olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

3- guruhga topshiriq

“Qumrilar ” qilib ku-ku, bulbul aylabon chax-chax,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afgʻonlar.
Bulbul oʻqigʻoch yigʻlab subhidam xazon faslin,
Gʻuncha qon yutub, yuz chok etti gul girbonlar.

3-guruh birgalikda tahlil qiladilar
Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,
Kiydi koʻk qilib sunbul zulfini parishonlar.
Kuymasun bu savdoda ne uchun dimogʻimkim,
Ranj-u gʻussada dono, kechsa shod nodonlar.

Gʻazal mazmuni haqida tushunchaga ega boʻladilar.
Muammolilik usuli

Savol va topshiriqlar

1. Furqatning bolalik davriga oid maʼlumotlarga eʼtibor qiling. Zokirjonning oʻziga xos jihatlari nimada edi?
2. Furqatning hayot yoʻli bilan ijodi oʻrtasidagi bogʻliqlikni toping.
3. Furqat sayohatlarining shoir dunyoqarashiga, dunyoqarashining esa ijodiga koʻrsatgan taʼsirini ifodalab bering.
4. Shoir ijodidagi soʻfiyona ohanglarni toping va ularning qanday paydo boʻlganligi haqida mulohaza yuriting.
5. Furqat gʻazallarining badiiy xususiyati haqida oʻylab koʻring. Ularga xos xususiyatlarini aniqlang.
6. Shoirning oʻrganilgan sheʼrlariga tayanib, Furqat lirik asarlarining qahramonlari tabiatiga xos jihatlarni aniqlang.
7. “Kalomingdin halovat topmogʻi jonlarni ondinkim,

Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik” baytida Furqat mahorati qanday namoyon boʻlganligiga toʻxtaling.

8. “Bormasmiz” radifli gʻazaliga tayanib, shoir shaxsini baholang.
9. Furqatning maʼrifatchilik adabiyoti rivojida oʻrniga toʻxtal.
10. Shoirning “Ilm xosiyati” masnaviysini tahlil qiling.
11. Furqat maʼrifatchiligi soʻfiylikdagi maʼrifatga chaqiriqdan qanday farqlanadi?
12. “Furqatnoma” asarida adib shaxsiyatining qaysi jihatlari namoyon boʻlganligiga toʻxtal.

Hamkorlik

Faol usullarning eng muhim koʻrsatkichi – kollektiv faoliyat hamda bahs va munozara, suhbat uslubida oʻqish hisoblanadi. Bu usul taʼlimning individualligidan voz kechmaydi, balki individualisatsiyaning namoyon boʻlishi uchun xizmat qiladi. Kollektiv faoliyat asosida oʻqish oʻquvchilarning tez va keng bilim egallashi uchun xizmat qilishi tajribalarda isbotlangan. Quyidagi savollar asosida muammolilik va hamkorlik asosida ham dars oʻtish mumkin. Oʻquvchilar darsda savollarga jabob bersalar muammo hal qilingan. Oʻquvchilar jabob bera olmasalar oʻqituvchi yordamida savollarga jabob olinadi va talabalar mavzuni oʻzlashtiradilar. Bu savollarga jabob berilishi yoki berilmasligi sinfda maʼlum boʻladi.

Muxbirlar usuli

Ushbu oʻyin orqali oʻquvchilarning faolligi oshiriladi. Kichik guruhlarda ishlash taʼminlanadi. Guruh oʻquvchilari ikki guruhga boʻlinadi va savollar beriladi. Bir guruh ikkinchi guruhga. Ikkinchi guruh birinchi guruhga. Oʻqituvchi savol-javoblarni kuzatib va baholab boradi.

Birinchi guruh uchun savollar.

1. Furqat ijodihaqida gapiring?
2. Shoir sheʼrlari haqida maʼlumotlar bering?
3. Adibning qanday ilmiy asarlarini biolasiz?

Ikkinchi guruh uchun savollar.

1. Musaddas nima?
2. Shor musaddasi haqida maʼlumotlar bering?

3. Asar ahamiyati nimada?

Muxbirlar usulida o'quvchilarning chaqqonligi, hozirjavobliligi, va to'g'ri javob berishi va og'zaki nutqning ravonligiga e'tibor beriladi va enh faol o'quvchu rag'batlantiriladi.

«Kichik guruhlarda ishlash » metodining tuzilmasi

Guruh o'quvchilari to'rtta guruhga bo'linadi va ularga asar mazmunini gapirib berish vazifasi beriladi va har bir guruh boshqa guruh a'zolariga savollar beradi. Bularning hammasida o'qituvchi nazorati ta'minlanadi. O'quvchi o'quvchilarni faolligi uchun rag'batlantiradi.

Sayiding qo'yaber, sayyod musaddasi.

Musaddas

Saydning qo'yaber, sayyod sayora ekan mendek,

Ol domini bo'yinidin, bechora ekan mendek,

O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,

Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek,

Kes rishtanikim: qilsun chappaklab otub jasta,

Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.

Tog'larga chiqib bo'lsun yori bilan payvasta,

Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta,

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,

Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,

Yomg'ur suvi to'lganda, tog' lolani jom etsun,

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

^{1.} X. Rasul. Furqat. Saylanma. Toshkent. Ma'naviyat. 2009. B.57.

Sargʻashta bu vodiya bir boshigʻa rahm etgil,

Yoʻq toqati bandingga, bardoshiga rahm etgil,

Rahm etmasang oʻziga, yoʻldoshiga rahm etgil,

Hijron oʻqidin jismi koʻp yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bagʻri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulim aylab, qoʻl, boʻynini bogʻlabsan,

Har sori chekib-sudrab, oʻldurgali chogʻlabsan,

Koʻksini jafo birla lola kabi dogʻlabsan,

Sot menga, agar qasding oʻlgʻuvchi soʻrogʻlabsan,

Hijron oʻqidin jismi koʻp yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bagʻri sadpora ekan mendek.

Yoʻq hushi, pari tekkan devonaga oʻxshaydur,

Koʻz yoshi yana toʻlgan paymonagʻa oʻxshaydur,

Gʻam seli bilan koʻngil vayronagʻa oʻxshaydur,

Furqatda bu Saʼdullo hayronagʻa oʻxshaydur,

Hijron oʻqidin jismi koʻp yora ekan mendek,

Kuygan jigari-bagʻri sadropa ekan mendek.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi oʻzbek xalqchil adabiyotining yirik namoyandasi, maʼrifatparvar, lirik shoir, otashin publisist Zokirjon Furqat Qoʻqon shahrida, Mullo Xolmuhammad oilasida dunyoga kelgan. Boʻlajak shoirning otasi zamonasining ilgʻor fikrli vakillaridan biri sifatida turli bilimlardan yaxshigina xabardor boʻlgan. Mullo Xolmuhammad xususan badiiy adabiyot muxlisi boʻlib, oʻzi ham sheʼriy iqtodori sohibi edi.

Furqatning “Sayding qoʻya ber, sayyod, sayyora ekan mendek” satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim oʻrin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor edi. 18-asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzogʻiga tushgan ohuga hamdardlik tuygʻusi bilan toʻlib toshgan maxsus muxammas ham yozgan edi. Furqatning musaddas boʻlib, bu ham shu anʼanada bitilgan. Lekin shoir

yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo‘lidan ketib, istilo asrining sayyodi qo‘liga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma‘no yangi mazmun beradi. Qolaversa, furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she‘rda nomi zikr etiladigan Sa‘dulla Hofizning yomonlar tomonidan fojiali o‘ldirilishini ham bir sabab qilib ko‘rsatadilar.

Musaddas 7 banddan iborat. Dastlabkii band shunday belgilanadi:

Sayding qo‘ya bek, sayyod, sayyora ekan mendek,

Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek,

O‘z yorini topmasdan, ovora ekan mendek,

Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,

Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,

Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.

Shoir tuzoqqa tushgan oxuning holini xilma-xil va muqoyasalar bilan tasvir etgach, ovchiga xitob qilib, uni banddan ozod etilishini so‘raydi.

Yashamoq, dunyoga shunchaki bir kelib ketmoq emas, misoli faqat qorin g‘amida g‘ovakda g‘imirlab o‘tib ketishi ham emas. Yashamoq, birinchi navbatda, xur, erkin yashamoqdir. Bas, “rishtani” (tuzoq ishlarini) kes!... “hayqiradi shoir,-tog‘larga chiqib bilan qolg‘usini...

Kel, besh kunlik sening davringda bechora, o‘ynab-quvonsin. Tengdoshlari bilan dunyo ne‘matlaridan bahramand bo‘lsin. Umri sening duoyi joningni qilsin. Axir, xijron o‘qlaridan qismi butun jarohat ekan. Jigar-bag‘ri ezilib, pora-pora bo‘lgan ekan-ku!

Savol va topshiriqlar

1. Musaddasning to‘la matnini o‘qib unda ifodalangan voqea mazmunini so‘zlab bering. Unda qanday ruh, kayifiyat yetakchilik qiladi?
2. She‘rda qaysi obrazlar ishtirok etmoqda? Ularga ta‘rif bering.
3. “O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek” misrasini sharhlang. Nima uchun shoir sayd – ohuni o‘ziga o‘xshatayapti?
4. Sayd obrazi she‘rda faqat ovlangan ohuni ifodalaydimi yoki ramziyma‘nosi bormi?

5. Sayyod obraziga munosabat bildiring. U kimlarning timsolini gavlantiradi?
6. Lirik qahramon Sizda qanday taassurot qoldirdi? Ohuga munosabatiga ko'ra uni o'zingizga yaqin sezyapsizmi?
7. Ushbu she'rga Siz qanday nom (sarlavha) qo'yardingiz?

Guruhlar berilgan savollarga javob beradilar. Har bir guruh javoblarini o'qituvchi baholab boradi. O'qituvchi xato va kamchiliklarini to'g'irlab boradi. Kichik guruhlarda ishlash natijasida barcha o'quvchilar faol qatnashadilar. Musaddac mazmuni o'zlashtiriladi.

Blits-test so'rovi asosida Furqat ijodini o'rgatish.

Guruh o'quvchilariga quyidagi test so'rovi savollari beriladi.

1. Qaysi shoir Navoiy boshliq ulug' shoirlarni tushida ko'rib, ularga "Chor devon"dan imtihon topshirib, "she'r mashqig'a ruxsat" oladi va shundan so'ng she'r yoza boshlaydi?

Javob: Furqat.

2. Furqat kimdan Qur'on tilovatini o'rganadi?

Javob: Ashur Muhammad qoridan.

3. Furqat kimdan arab tilini o'rganadi?

Javob: Poshshaxo'ja eshondan.

4. Furqat Qashgqarda qanday ish bilan shug'ullanadi?

Javob: Rusiya musulmon iridasiga kotib bo'ladi.

5. Furqatning 1891-yilning yanvar-iyun oylarida davomli chop etilgan "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozg'on" nomli memuar asari adabiyotshunoslikda qanday nomlanadi?

Javob: "Furqatnoma", "Sarguzashtnoma".

6. Furqat necha yoshida "Mantuq ut-tayr" asarini o'qigan?

Javob: 8 yoshida.

7. Furqat necha yoshida Navoiyning g'azaliyoti bilan tanishadi?

Javob: 9 yoshida.

8. "Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imloyi savodim", deb qaysi shoir yozgan?

Javob: Furqat.

9. Furqat qachon qaysi xastalikdan vafot etgan?

Javob: 1909-yilda, tomoq og‘rig‘i xastaligidan.

10. Furqat necha yoshida madrasa talabasi bo‘lgan?

Javob: 14 yoshida.

11. Furqat necha yoshida devon tartib bergan?

Javob: 21-22 yoshida.

12. Furqat nechanchi yillari Toshkentda yashadi?

Javob: 1890-1891-yillar.

13. Furqat Samarqandda kimning huzurida bo‘ladi?

Javob: Savdogor va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida.

14. Furqat Qashqarda kimga uylanadi?

Javob: Ra‘no ismli ayolga.

15. Furqat nechanchi yilgacha Turkiston bilan “Turkiston viloyarining gazetisi” bilan aloqani uzmad?

Javob: 1906-yilgacha.

16. Furqatning adabiy merosi nimalarni o‘z ichiga oladi?

Javob: 1) lirikasi 2) publitsistikasi, nasriy asari 3) tarjimalari 4) ilmiy asarlari.

17. Furqat tarjimai mansub bo‘lgan asarlarni toping?

Javob: “Hammomi xayol”, “Chor darvesh”, “Nuh manzar”.

18. Furqatning qaysi asarlari bizgacha yetib kelmagan?

Javob: “Hammomi xayol”, “Chor darvesh”, “Nuh manzar”.

19. Furqatning ilmiy asarlarini toping?

Javob: 1. “To‘y tavsifi” 2. “Gap ta’rifida” 3. “Aza tavsifi” 4. “Ilmi qoidai avzoni”.

20. Furqatning qaysi ilmiy asarlari etnografik xarakterda?

Javob: 1. “To‘y tavsifi” 2. “Gap ta’rifida” 3. “Aza tavsifi”.

21. Furqat g‘azallarining sonini toping?

Javob: 200 ga yaqin.

22. Furqat ijodida qaysi janrlar uchraydi?

Javob: G‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod.

23. 1883-yilda Qo‘qonda tartib berilgan bayozga Furqatning necha she‘ri kiritilgan?

Javob: 9 ta g‘azali.

24. Muqimiy Furqatning qaysi g‘azaliga taxmis bog‘lagan?

Javob: “O‘lturg‘usi” radifli g‘azaliga.

25. “Kelsa kulbanga o‘shal berahm zor o‘lturg‘usi, Kelmasa, kelguncha dardi intizor o‘lturg‘usi”. Ushbu misralar muallifini toping?

Javob: Furqat.

26. Furqatning “Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lolarang...” g‘azali kimning g‘azaliga o‘xshatma sifatida bitilgan?

Javob: Fuzuliyning.

27. “Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar... Baytning davomini toping?

Javob: Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.

28. “G‘aribi, bu viloyat xonumonidin adashganman”. She‘r mualifini toping.

Javob: Furqat.

29. Furqatning “Bir qamar siymoni ko‘rdim baldayi Kashmirda” satri bilan boshlanuvchi g‘azali qayerdayaratilgan?

Javob: Yorkentda.

30. Furqatning “ Sayidning qo‘yaber, sayyod “ deb boshlanuvchi she‘rining janiri?

Javob: Musaddas.

31. Furqatning qaysi g‘azali raddi matla‘ san‘ati asosida yozilgan?

Javob: “Koshki bir joyda bo‘lsak erdi jonon ikkimiz, Ko‘zi shum ag‘yorlardin anda pinhon ikkimiz...”

32. “Chaman sahnida derlar sarv bila yosuman no‘zik, G‘alatdur, qomating oldida guldan pirahan no‘zik”. She‘r mualifini toping.

Javob: Furqat.

33. “Biz istig‘no eli, qichqirmog‘an ma‘vog‘a bormismiz, Agar chandiki xirman aylasa, dunyog‘a bormasmiz”. She‘r mualifini toping.

Javob: Furqat.

34. Furqatning qaysi gʻazallarida taqdirning unga bergan sinovi-yurt judoligi bayon etiladi?

Javob: “Figʻonkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim...”, “Hasrato, kel-kel beri, ul shoxi jonondin gapur...” gʻazalarida.

35. Furqat Istambulda yozgan “ Sabogʻa xitob” sheʻrida qayerdagi doʻstlarini esga oladi?

Javob: Toshkentdagi doʻstlarini

36. Furqatning “ Sabogʻa xitob” sheʻri qanday shaklda yozilgan?

Javob: Maktub shaklda.

37. Furqatning “ Sabogʻa xitob” sheʻri qayerda yozilgan?

Javob: Istambuldagi “ nasimi fayzi rab “ boʻlgan Milliy bogʻda sayr qilayotganda.

38. Furqatning ayriliq va judolik maʼnosida yaratilgan muxxamasi qaysi?

Javob: “Manam shoʻrida bulbul “ muxamassi.

39. Furqat 1890-yilda Toshkentda ekanida uni kim Yangi shahar qismiga tomoshalarga olib boradi va juda koʻpchilik rus amaldorlari, general-gubernator bilan tanishtiradi?

Javob: Ostroumov.

40. Furqatning masnaviy yoʻlida va maorifni isloh qilish, ilimga daʼvat, fan va madaniyat yangiliklarini targʻib etish gʻoyalari ilgari surilgan sheʼrlarni toping.

Javob: “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Nagʻma bazmi xususida”, “Vistavka xususida”, “Suvorov”.

41. “Ul qaro koʻz koʻzlariga surma bejo tortadur, mualifini toping.

Javob: Furqat.

42. Furqatning qaysi gʻazalida soʻfiyona kayfiyat, qalondarona baland himmat ruhning yetakchiligi seziladi?

Javob: “Biz istigʻno eli, qichqirmagʻon mavogʻa bormasmiz, Agar chandiki xirman aylasa dunyogʻa bormasmiz.”

43. Furqatning fikricha, “fano koʻyida kimki muʼtakifdur”, uni kim deb atashgan?

Javob: Xilvatiy.

44.Furqatning fikricha, “oshal kun anjumanda o‘tsa umri”, uni kim deb atashgan?

Javob: Suhbatiy.

45.Furqatning “Saydning qo‘yaber, sayyod sayora ekan mendek”, deb boshlanuvchi musaddasi necha banddan iborat?

Javob: 6 band -36 misra.

46.Furqatning “Saydning qo‘yaber, sayyod sayora ekan mendek”, deb boshlanuvchi musaddasi qaysi san‘atkor do‘stining nomi eslanadi?

Javob: Sa‘dulloning.

47.Furqatning “Saydning qo‘yaber, sayyod sayora ekan mendek”, deb boshlanuvchi musaddasi necha banddan iborat?

48.Furqat ijodidagi muhabbat namunalaridan hisoblanuvchi g‘azali nomini aytin?

Javob: “Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda”

49. Furqatning shoh asari nomi?

Javob: “Sayding qo‘yaber, sayyod...” musaddasi.

50. Kerak har ilmdin bo‘lmoq xabardor,

Kerak har qaysi o‘z vaqtida darkor.

She‘riy parcha Furqatning qaysi she‘ridan olingan?

Javob: “Ilm xosiyati”.

Lug‘at ustida ishlash

MUSADDAS - (ar.- oltilik so‘zidan) – qofiyalanish tartibiga qarab tuzilgan klassik she‘r shakllaridan biri bo‘lib, har bir bandi olti misradan tarkib topadi. Boshda olti misra bir xil qofiyalanadi. Keyingi bandlarning besh misrasi alohida qofiyalansada, oltinchi misralari dastlabki bandga qofiyadosh bo‘lib boradi.. Musaddasning qofiya sxemasi: a-a-a-a-a-a; b-b-b-b-b-a; v-v-v-v-v-a

BAYOZ – (arabcha بياض – **oqlik**) she‘rlar to‘plami. Bayozlar odatda ikki yoki undan ortiq shoirlar she‘rlaridan tashkil topadi. Bayozlar asosan mashhur shoirlarning

¹E. Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Sharq, 2008.

lirik asarlaridan tuzilgan. Bayozlar ma'lum bir g'oya yoki muayyan dunyoqarashni tashviq va targ'ib qilmaydi, umuman saylab olingan asarlarda davriylik ham bo'lmaydi. Kimning she'ridan qanchalik kiritish bayoz tuzuvchining xohishiga bog'liq bo'lgan. Bayozlar sarbayoz (so'zboshi), lirik she'rlar (asosiy qism), xotima va ilovadan tashkil topadi. Ayrim bayozlarda asarlari kiritilgan shoirlar nomi mundarija sifatida beriladi. Bu xil to'plamlar mualliflarning o'zi yoki adabiyot ixlosmandlari va xattotlar tomonidan tuzilib, adabiyot targ'ibida muhim vazifa bajargan.

BAYT – (arabcha بيت – **uy**) arab, fors-tojik va ko'pgina turkiy xalqlar adabiyotshunosligida ikki misra she'rga nisbat beriladigan istiloh. Har qanday ikki misra she'r ham bayt bo'la olmaydi. Bayt bo'lishi uchun keltirilgan ikkala she'riy misra bir-biri bilan mazmun va mantiq jihatdan bog'langan bo'lishi u yoki bu poetik g'oyani ochishga xizmat qilishi lozim. Baytlar adabiy janrlar talabiga ko'ra turlicha qofiyalanadi. Masalan: g'azalda birinchi baytda ikki misra **a-a** tarzida qofiyalanib, qolgan baytlarining ikkinchi – juft misralar birinchi bayt qatorlari bilan qofiyadosh bo'ladi; masnaviyda esa, bayt misralari o'zaro, ya'ni **a-a, b-b, v-v...** ko'rinishida qofiyalanadi.

Har qaysi bayt 4, 6, 8, ba'zan 12, 16, 20, 36 rukndan tashkil topishi mumkin. To'rt ruknli bayt murabba', olti ruknli bayt musaddas, sakkiz ruknlisi musamman, 12 ruknlilari ko'pincha mustazod nomlari bilan yuritiladi. 16, 20, 36 ruknli baytlar esa, alohida nomlanmay, «12 ruknli», «20 ruknli» va «36 ruknli» deb atalaveradi.

BO'G'IN – bir nafas olish asnosida aytiladigan tovush yoki tovushlar birligi, so'zning mustaqil talaffuz qilinishi mumkin bo'lgan bo'lagi. Unli tovushlar bo'g'in hosil qiluvchi asos hisoblanadi. She'riyatda bo'g'inlar juda muhim vazifa bajaradi. She'r ritmitikasini yuzaga keltiruvchi turoq, misra va turkum kabi unsurlar bo'g'in bilan bevosita aloqadordir. Masalan:

4	5	
Mening qalbim / shisha emaski, 4+5=9		
4	5	
Bir tosh ila / chil-parchin etsang. 4+5=9		

4

5

Mening qalbim / dengiz emaski, 4+5=9

4

5

Sho'ng'isangu / tagiga etsang. 4+5=9

(H.Xudoyberdieva)

Ushbu she'riy parchaning har bir misrasi to'qqiz bo'g'indan tashkil topgan. Misralar ikkita turoqdan iborat bo'lib, ularning biri to'rt bo'g'inli, ikkinchisi besh bo'g'indan tashkil topgan. Demak, H.Xudoyberdievaning «Mening qalbim» she'ri barmoq she'riy tizimining to'qqizlik turkumida, 4+5=9 vaznida yozilgan, degan xulosaga kelamiz. Aruz she'riy tizimidagi bo'g'inga vazifadosh birlikka nisbatan «hijo» istilohi ishlatiladi.

HIJO – (arabcha هجا – **bo'g'in**) aruz tizimidagi she'riy nutqning eng kichik ritmik bo'lagi, ya'ni so'zning bir tovush to'lqini bilan hosil bo'ladigan qismi. Hijo bo'g'in tushunchasiga yaqin bo'lsa ham uning o'zi emas. Chunki hijo undosh tovushning o'zidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan Alisher Navoiyning:

Vasl bog'i / ichra sendek / shohi zolim / ko'rmadim,

Ishq ko'yi / da o'zimdek / notovone / topmadim

baytidagi «vasl» va «ishq» so'zlari tarkibidagi «l» hamda «q» undoshlari alohida hijo hosil qilib kelmoqda.

Hijolar o'qilishi jarayonida sarf bo'lgan vaqtiga ko'ra *qisqa*, *cho'ziq* va *o'ta cho'ziq* hijolarga ajratilib o'rganiladi. Har xil hijolarning muayyan tartibda birikib takrorlanishidan aruz she'riy tizimining juzvlar deb ataladigan birliklari: sabab, vatad va fosilalar vujudga keladi.

G'AZAL- sharq xalqlari adabiyotida, jumladan o'zbek klassik adabiyotida keng tarqalgan lirik janr.

G'azal, ko'pincha ishqiy temada yaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy temalarda ham ko'p g'azallar yozilgan. Navoiy, Turdi, Maxmur va

¹E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Sharq, 2008.

boshqa o'zbek shoirlarida satirik g'azallar ham bor.

G'azal kamida uch baytdan, ko'pi bilan 10-12 baytdan (ba'zan undan ham ko'proq) iborat bo'ladi...

TOPSHIRIQ

Quyidagi so'zlarning mazmunini lug'atlardan yozib kelish va mazmunini bilib olish.

Muxammas, misra, bayt, rukn, bahr, janr, lirika.

MUXAMMAS — (ar. Yakka, yolg'iz so'zidan) — klassik poeziyadagi qovialanish tartibiga ko'ra tuzilgan she'r shakllaridan biri. Muxammasda birinchi band misralarining xammasi o'zaro bir xil qofialangan bo'ladi: keyingi bandlarning to'rt misrasi o'zaro alohida qofialanib, beshinchi misralari dastlabki bandning beshinchi misrasi bilan qofiyalanadi. Chunonchoi, Turdining “Subhonqulixon, uning amir va amaldorlari haqida hajviya”si muhammas shaklida yozilgandir.

MISRA — she'rning har bir satri, yo'li. She'rda tugal bir ma'noni ifodalagan misralar (“kungil bog'i aro sarvi xiromonimni sog'indim”) bo'lganidek, ko'chirilgan misralar ham uchrab turadi (k. Ko'chirish.)

Adabiyot va adabiyotshunoslikda “kuyma misra”, “shox satr” tabirlari ham ishlatiladi. Mazmunan boy, shaklan mumtoz she'rlardagi o'rnidan qo'zg'atib bo'lmaydigan yoki biror so'zini ham o'zgartirib bo'lmaydigan nodir satrlar ana shunday ta'riflanadi...

¹E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. —T.: Sharq, 2008.

XULOSA

Furqat o'zbek demokratik adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri bo'lib, o'zbek demokratik adabiyotida ma'rifatparvarlik yo'nalishining eng jo'shqin kuychisi sifatida ijod etdi. Furqat o'z bilimi va butun qobiliyatini xalq xizmatiga bag'ishlab, maorif, erkinlik va baxt kuyini kuylagan ma'rifatparvar shoirdir.

Furqatning boy va mazmundor ijodiy faoliyati madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixi taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. Furqat sharq poeziyasining ajoyib namunalarini yaratgan lirik shoir, ilm-madaniyatni, taraqqiyotni tinmay targ'ib qilgan ma'rifatparvar arbob, qimmatli me'muar asarlar yozib qoldirgan prozaik, tarjimon ba publisistdir.

Furqat adabiy merosining katta qismini uning lirikasi tashkil etadi. Shoir klassik poeziyamizning mavjud she'riy shakllari (g'azal, muxammas, musaddas, masnaviy, tarji'band va boshqalar) dan mohirlik bilan foydalandi va ularning ajoyib, go'zal namunalarini yaratdi.

Furqat lirikasida hayot, real insoniy kechinmalar kuylanadi. Shoir o'z lirikasida kishilarni turmushdan zavqlanishga chaqirdi, ularni turmush illatlaridan nafratlanishga, turmush go'zalliklarini sevish va saqlashga o'rgatdi. Furqat o'zining yuksak badiiy asarlari bilan kishilarning estetik didini oshirdi. Furqat lirikasida yaratilgan ijobiy qahramonning eng muhim xususiyati shuki, u hayotni sevadi. Yor – mahbuba va uning husnu latofati, noz-karashmalari haqidagi qo'shiq shu hayot go'zalliklarining timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Furqat lirikasidagi "Fasli navbahor", "Fasli guldirdi", "Bahor ayyomida", "Istar ko'ngul", "Ul qaro ko'z" va shu kabi she'rlarida hayot go'zalligi tarannum etiladi. Furqat lirikasiga xos bo'lgan bu chuqur lirizm ijobiy qahramon tilidan aytilgan quyidagi misralarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Do'stlar, ayshu tarab, fasli bahor istar ko'ngul,
Har kuni sahroda sayri lolazor istar ko'ngul,
Aylamak har sori ohular shikor istar ko'ngul,
Kabk raftorin ko'rarg'a ro'zsor istar ko'ngul,
Dog'i xursand etgusi har neki bor, istar ko'ngul.

Furqat poeziyasining kuchli ba muhim nuqtalaridan biri undagi erkinlik va ozodlik motivlaridir. Furqat o'zining turmush haqidagi oliyjanib istak va orzularini kuylaganda qullikka, haqsizlikka nafrat bildiradi, erkin, ozod va quvnoq hayotni tarannum etadi. Bu jihatdan uning "Sayding qo'ya ber, sayyod..." musaddasi xarakterli hisoblanadi.

"Sayding qo'ya ber, sayyod..." musaddasi faqat Furqat poeziyasininggina emas, balki butun demokratik adabiyotning eng yaxshi va kuchli namunalaridan biridir.

Bu musaddas erkin hayot haqidagi jo'shqin qo'shiq, haqiqiy erkinlik madhiyasidir.

Mana shunday boy merosga ega bo'lgan o'zbek adabiyotining sevimli shoirlaridan biri Furqat ijodini maktab o'quvchilariga o'rgatish bugungi kun davr talabidir. Shoir asarlaridagi ilg'or g'oyalarni zamonaviy o'qitishning keys-stadi usuli, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, savol-topshiriq, tahlil usuli, aqliy hijum, tarmoqlash metodi, interfaolmetod, muammolilik, kichik guruhlarda ishlash metodi muxbirlar usuli, blits test so'rovi asosida Furqat ijodini o'rgatish, lug'at ustida ishlash kabi turlarida o'rgatish haqidagi mulohazalarimizni bayon qildik. O'qitishning bu usullaridan kelajakda maktablarda, o'rta maxsus bilim yurtlarida, oliy o'quv yurtlarida keng turda foydalanish mumkin deb o'ylaymiz. Zamon tezkor shiddatlar bilan o'sib borayotgan hozirgi kunda modul sistemasida o'qitish jarayonida ham bu usullardan foydalansa bo'ladi. Sababi, modul sistemasida o'qitish usullaridan biri test asosida talabalar bilimini baholashda Furqat ijodi haqida tuzilgan test savollaridan bimalol foydalanish mumkin. Malakaviy bitiruv ishimizda umumta'lim maktablarida Furqat ijodini o'rgatishning samarali usullari haqidagi ba'zi qarashlarimizni yozdik. Bu mavzuni kelajakda yana davom ettirish mumkin deb o'ylaymiz. Sababi, shoir she'riyatining o'zi ham katta izlanishlarni talab qiladi. Hatto har bir she'rni alohida-alohida o'rgatish usullari asosida ham ilmiy izlanish ishlarini olib borish mumkin deb o'ylaymiz. tez va ko'proq topishga yo'naltiriladi.

Interfaolmetod - o'qituvchining bosh vazifasi dars maqsadiga o'quvchilarning mustaqil faoliyatini yo'naltirishga qaratiladi. Shunga mos ravishda vazifalar ko'lamini belgilanadi. Vazifalar esa interfaol metodlar asosida shakllantiriladi. Bular muammolilik va hamkorlik usullaridir.

Muammolilik

O'qituvchi vazifasi – o'quvchini muammoli situatsiyaga olib kirish. O'quvchi vazifasi esa – bu muammoli situatsiyaning yechimini mustaqil topish. Ammo o'quvchi muammodan chiqish uchun yetarli bilimga ega emas. Shu bois o'quvchi - o'qituvchi va boshqa o'quvchilar ko'magi bilan kerakli bo'lgan bilimlarni shakllantiradi. Bunda o'quvchi mustaqil ravishda o'z mantiqi, tafakkuri, bilimlarini ishlatishga majbur bo'ladi. Eng kuchli muammolilik - o'qituvchi uchun ham yechimi noaniq bo'lgan muammoga javob topish vazifasini topishdir.

Agar o'quvchilar muammoni topa olmasalar o'qituvchining o'zi muammoni yaratishi mumkin.

«Kichik guruhlarda ishlash» - metodining tuzilmasi guruh o'quvchilari to'rtta guruhga bo'linadi va ularga asar mazmunini gapirib berish vazifasi beriladi va har bir guruh boshqa guruh a'zolariga savollar beradi. Bularning hammasida o'qituvchi nazorati ta'minlanadi. O'qituvchi o'quvchilarni faolligi uchun rag'batlantiradi.

Muxbirlar usuli. Ushbu o'yin orqali o'quvchilarning faolligi oshiriladi. Kichik guruhlarda ishlash ta'minlanadi. Guruh o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi va savollar beriladi. Bir guruh ikkinchi guruhga. Ikkinchi guruh birinchi guruhga. O'qituvchi savol-javoblarni kuzatib va baholab boradi.

Blits-test so'rovi asosida Furqat ijodini o'rgatish. O'quvchilarga test berish orqali bilim berish va o'quvchilar bilimini tekshirish.

Lug'at ustida ishlash.

Berilgan so'zlarning mazmunini bilish uchun lug'atlardan foydalanib so'zlarning ma'nosini bilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ilmu fan mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin. Asarlar to'plami. 2-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1999.
1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor –T.: O'zbekiston, 2009.
4. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2011.
5. S.Matchonov, Sh.Sariyev. O'zbek adabiyoti. –T.: Yurist-media markazi, 2010.
6. U. Normatov. Ijod sehri. –T.: 2007.
7. O'z RFA Sharqshunoslik instituti. –T.: 2012.
8. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: 2005.
9. E. Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Sharq, 2008.
10. U. Hamdamov. Yangilanish ehtiyoji. Toshkent - 2007.
11. S. Matchonov, Sh.Sariyev. O'zbek adabiyoti. –T.: Yurist-media markazi, 2011.
12. E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Sharq, 2008.
13. M. Ibrohimov. Adabiyot - mening borlig'im. –T.: Yangi nashr, 2009.
14. A. Sattarov. Informatika va axborot texnologiyalari. –T.: Mahorat, 2010.
15. I. Xolliiev. Kasb-hunar ta'limi: Texnologiya. Ma'naviyat. Mahorat. –T.: Mahorat, 2003.
16. S. Yo'ldasheva. Oliy va kasb hunar ta'limida pedagogik texnologiyalar. . –T.: OPI, 2011.
17. M. Ergashov, M. Adashboev. Ta'lim jaryonida interaktiv doskadan foydalanish. –T.: Mahorat, 2010.
18. H. Karimov. Istiqlool davri adabiyoti. –T.: Yangi nashr, 2010.
19. A. Hojiahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi? –T.: Sharq, 2001.

20. T.Madmuratov, M. Kamoldinov Innovatsiyon pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash. –T.: Talqin, 2012.
21. O'z.R.F.A. Sharqshunoslik instituti. Buyuk iste'dod sohiblari. –T.: Adolat, 2002.
- 22.R.Niyozmetova, O.Oxunjonova, O.Ametova, H.Aliqulova. Ona tili va adabiyot. – T.: TDPU, 2014.
23. O'zbek she'riyati antologiyasi. Uchinchi jild. –T.: O'zadabiynashr, 1961.
24. Sh. Yusupov. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat. –T.: O'zbekiston, 1992.
25. X.Rasul. Furqat. Saylanma. –T.: Ma'naviyat, 2009.
26. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot. 9-sinf. Darslik.-T.: Yangi yo'l poligraf servis, 2014.
27. [www. nuqf. intal. uz](http://www.nuqf.intal.uz)
28. [www. o'zbek adabiyoti.com](http://www.o'zbekadabiyoti.com)
29. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)